



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**«BIOLOGIYA» KAFEDRASI**

## **“AMALIY MOLEKULYAR ZOOLOGIYA”**

**fani bo'yicha**  
**O'QUV-USLUBIY MAJMUА**

**Bilim sohasi:**

100000 - Gumanitar soha

**Ta'lif sohasi:**

110000 - Pedagogika

**Mutaxasislik:**

70510101 – Biologiya (1-k magistr)

**GULISTON–2022**

**Ushbu o'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Kengashi tomonidan 202\_ yil --- avgustda №\_ buyruq bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqildi.**

**O'quv-uslubiy majmuani tuzuvchi:**

**Z. Maxmudjonov**

**Biologiya kafedrasи katta o'qituvchisi,  
biologiya fanlari bo'yicha  
falsaфа doktori (PhD)**

**Taqrizchi:**

**A. Pazilov**

**Biologiya kafedrasи professori,  
biologiya fanlari doktori**

**Ushbu o'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti o'quv metodik Kengashining 202\_ йил 29.08 1-sonli majlisida ko'rib chiqilgan va ishlatishga tavsiya etilgan (№1 bayonнома).**

## MUNDARIJA

<b>I</b>	<b>O'QUV MATERIALLARI</b>	
<b>I.1.</b>	<b>MA'RUZA MATERIALLARI</b>	
	Ma'ruza 1 Amaliy molekulyar zoologiya faniga kirish.	
	Ma'ruza 2. Hayvonot olami xilma-xilligi o'rghanishda molekulyar usullarni qo'llash.	
	Ma'ruza 3. Hayvonlar molekulyar sistematikasini o'rghanishda dunyoda va O'zbekistonda bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar.	
	Ma'ruza 4. Molekulyar-genetik tahlillar uchun zoologik namunalarni yig'ish talablari. Namunalarda morfologik va taksonomik tadqiqotlar.	
	Ma'ruza 5. Zoologik ob'ektlardan genom DNKsini ajratish.	
	Ma'ruza 6. Polimeraza zanjirli reaktsiya (PZR) uslubining asosiy tushunchasi. PZR – amplifikatsiya.	
	Ma'ruza 7. Agaroza gelida elektroforez usulini asosiy tushunchasi. Ribosomal va mitoxondrial DNK tozalash	
	Ma'ruza 8. Molekulyar klonlash. Ligirlash reaktsiyasi. Komponent xujayralarni tayyorlash va transformatsiya qilish.	
	Ma'ruza 9. Plazmida DNKsi ajratish. Restriktzion tahlil.	
	Ma'ruza 10. Sekvenirlash – DNKning birlamchi nukleotidlar ketma-ketligini aniqlash. Nukleotidlar ketma-ketligi asosida organizmlarni identifikasiya qilish.	
	Ma'ruza 11. Filogenetik daraxtni tuzish. Nukleotidlar ketma-ketligini ni Genbank (NCBI) bazasiga joylashtirish. DNK – diagnostika (PTsR texnologiyasi).	
<b>I.2.</b>	<b>AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI</b>	
	Amaliy mashg'ulot 1. Standart fenol-xloroform usuli yordamida umurtqasiz hayvonlar to'qimasi namunasidan genom DNKsini ajratish.	
	Amaliy mashg'ulot 2. Polimeraza zanjirli reaktsiya (PZR) - amplifikatsiya o'tkazish.	
	Amaliy mashg'ulot 3. Agaroza gelini tayyorlash va PZR mahsulotlarida elektroforez o'tkaziish. Agaroza gelidan DNK ajratish va tozalash.	
	Amaliy mashg'ulot 4. Ligirlash reaktsiyasini o'tkazish.	
	Amaliy mashg'ulot 5. Plazmida DNKsi ajratish. Restriktzion tahlil.	
	Amaliy mashg'ulot 6. Sekvenirlash reaktsiyasi. PZR-amplifikatsiya reaktsiyasidagi asimmetrik fragmentlarni tozalash.	
	Amaliy mashg'ulot 7 Turlar xilma-xilligi. Jumboqli turlar.	
	Amaliy mashg'ulot 8. Bioxilma-xilikni o'rghanishda molekulyar-genetik usularning qo'llanilishi. Molekulyar markerlar.	
	Amaliy mashg'ulot 9. Kommertsiyali reagent to'plamlari yordamida umurtqasizlar to'qimasi namunasidan genom DNKsini ajratish.	

	Amaliy mashg'ulot 10. <i>Escherichia coli</i> komponent xujayralarini tayyorlash talablari.	
	Amaliy mashg'ulot 11. <i>E.coli</i> xujayrasini genetik transformatsiyasini o'tkazish.	
	Amaliy mashg'ulot 12. Blastn programmasi yordamida ko'plab tekislash ishlarini olib borish.	
	Amaliy mashg'ulot 13. Nukleotid ketma-ketliklarni tuzish. Turli kompyuter dasturlari yordamida nukleotidlar ketma-ketligini ko'p marotabali to'g'irlash.	
	Amaliy mashg'ulot 14. Filogenetik daraxtni tuzish. MEGA-8 dasturidan foydalanish.	
	Amaliy mashg'ulot 15. <i>Macrochlamus turanica</i> va <i>Zonitoides nitidus</i> turlarining tashqi va ichki tuzilishi	
<b>II.</b>	<b>MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI</b>	
<b>III.</b>	<b>GLOSSARIY</b>	
<b>IV.</b>	<b>ILOVALAR</b>	
	Namunaviy fan dasturi	
	Ishchi fan dasturi	
	Tarqatma materiallar	
	Testlar	
	Baholash mezonlari	
	O'UM ning elektron varianti	

## NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### I.1. MA'RUZA MATERIALLARI

#### 1-mavzu: AMALIY MOLEKULYAR ZOOLOGIYA FANIGA KIRISH

##### REJA:

“Amaliy molekulyar zoologiya” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari. Amaliy molekulyar zoologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va ahamiyati. «Bioxilma-xillik» tushunchasi. Biologik turlar. Baxsli turlar. Turlar ichidagi polimorfizm. Bioxilma-xillikni saqlashda interaktiv kataloglar va ma'lumotlar bazasi.

**Tayanch iboraları:** *Bioxilma-xillik, populyatsiya, tur, jumboqli turlar, polimorfizm, DNK-shtrix kodlash, genosistematika, filogenetika, DNK, PTsR.*

##### 1.1. “Amaliy molekulyar zoologiya” faniga kirish

Molekulyar genetikaning rivojlanishi biotexnologiyaning taraqqiyoti uchun katta turtki bo'lib xizmat qildi. Ushbu yo'nalishning negizida yangi mahsulotni yaratish yoki avvaldan ma'lum bo'lgan mahsulotni genetik materialni ko'chirib o'tkazish yo'li bilan olish masalasi yotadi. Hozirgi davrda biotexnologiya turli biologik faol moddalarni sanoat asosida ishlab chiqarilishida keng qo'llanilmoqda (Venter et al., 2001; Glik, Pasternak, 2002 va boshq.).

**Molekulyar zoologiya** - zoologiya fanining yangi yo'nalishi bo'lib, evolyutsiyaning o'rghanishning katta imkoniyatlarini beradi. U bir butun revolyutsiyaga sabab bo'ldiki, oldin tadqiq etilgan turlar o'rtasidagi qarindoshlik aloqalarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. DNK rasshifrovkasi qarindoshlik darajalarini bizga ko'rsatdi. Ta'kidlash joizki, molekulyar genetika organizmlarning evolyutsiyasi va irsiyat mexanizmlari to'g'risidagi tasavvurlarni chuqurlashtirib, pirovardida filogenetika va gen sistematikasiga asos soldi. Gen va genomlarni solishtirish natijasida hayvon, o'simlik va mikroorganizmlarning genetik qarindoshligi haqida xulosa qilinadi. Solishtirayotgan genlarning nukleotid ketma-ketligi qanchalik farq qilsa, shunchalik organizmlar genetik qarindoshligi jihatdan bir-biridan uzoq bo'ladi.

Gen sistematikasi hali sistematik statusi oxirigacha o'rnatilmagan taksonlar xususida bahsli savollarni echishda alohida ahamiyat kasb etdi. Tadqiqotchilar morfologik tahlilning an'anaviy usullaridan foydalanib, organizmning taksonomik holatini baholab beraolmaganlarida bu muammoga tez-tez to'qnash kelishmoqda. Barcha morfologik belgilar DNK ketma-ketligida belgilanganligini e'tiborga olgan holda sistematika uchun genetik materialdan foydalanish evolyutsiya jarayonlarini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi va uning asosida sistematik joylanish haqida xulosa qilinadi. Shuningdek, DNK orqali jinsiy voyaga etmagan organizmlar, lichinkalar, o'simtalar, gulsiz yoki mevasiz o'simliklar, ya'ni organizmni har qanday bosqichida identifikatsiya qilish mumkin.

Hozirgi vaqtida turli guruh organizmlarda molekulyar biologiya sohasiga (genomika) bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlар soni adabiyotlarda tobora kengayib bormoqda.

Hayvonlar va o'simliklar turlarni aniqlashda morfologiya, fiziologiya, bioximiya, tsitologiya, etologiya, ekologiya, geografiya va genetika kriteriyilari mavjud. Bular ichida morfologiya kriteriyasi birinchi va uzoq vaqt yagona kriteriy sifatida e'tirof etilib kelingan. Morfologik kriteriy hozir ham o'simliklar va hayvonlar sistematikasida keng foydalanilmoqda. Lekin ba'zan bir biriga yaqin bo'lган turlar yoki "polimorf"larni aniqlashda morfologik usul ham yordam bermayotir. Keyingi yillarda bioximik va genetik tadqiqotlarni yuksak darajada rivojlanishi va yangi tekshirish usullarni kirib kelishi, molekulyar taksonomiya yo'nalishini ochib berdi.

Bu sohadagi ishlarning ulkan yutuqlarga erishishi va kuchaytirilishiga qaramasdan, hozirgi vaqtida bioxilma-xillikni o'rganish holati darjasini qiyin ahvoldadir. Hozirgi davrda 1,9 mln yaqin tirik organizmlar mavjud bo'lib, keyingi 250 yil ichida ularning katta qismiga tavsif berilgan. Turli tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, hozirgi paytda ko'pi yoki kami bilan faqatgina umurtqali hayvonlarning (90 % yaqin) va yuksak o'simliklarning (85% yaqini) turlariga tavsif berilgan. Bug'imoyoqlilarning 25 % yaqin turlari talqin qilingan (shu jumladan 10 % hasharotlar), 5 % qo'ziqorin va diatom suv o'tlari va b.q. (Shneer, 2007).

Inson xo'jalik faoliyatini natijasida turlar xilma-xilligi tez va fojiali kamayishiga olib kelmoqda-ki, agarda biz turlarni faqatgina klassik morfologik usullar orqali tadqiqot ishlari olib boradigan bo'lsak, katta ehtimollik mavjudki-ki, biz ular ustida tadqiqot olib borish, xatto ko'p qismini aniqlash imkoniga ega bo'lmay qolamiz. Hozirgi davrda dunyoda 15000 yaqin taksonomist-morfolog tadqiqotchilar bor. Hozirda er yuzida ko'plab turlar mavjud bo'lib, qaysiki ularni aniqlash uchun dunyoda 1-2 mutaxasistlar to'g'ri keladi. Hisob-kitoblarga qaraganda, agarda yangi turlarni aniqlashni jadallashtirish sharoitini 30 marotabaga ko'paytirsak, mavjud bo'lган bioxilma-xilikni tavsif etish uchun 25 yil kerak bo'lar ekan (Woodruff, 2001).

2000 yillar boshida taksonomik ma'lumotlarni keng va to'liq foydalanishni ta'minlash maqsadida interaktiv kataloglar (Catalog of Life) tuzish takliflarni paydo bo'la boshladi (Bisby, 2000; Godfray, 2002). Bu vaqtida bir guruh tadqiqotchilar, paydo bo'lган muammolarni samarali echishda DNK-sistematika yordam beradi deyishdi (Tautz, 2002, 2003). Bunday taklifning paydo bo'lishiga sabab sekenirlash texnologiyasida revolyutsion (Senger-sekvenirlash texnologiyasi) o'zgarishlari bo'ldi. Alovida DNK fragmentlarni, o'rtacha uzunlikdagi 1000 j.n. sekvenirlash bemalol va etarlicha arzon usul bo'lib qoldi. Molekulyar-genetik usullardan foydalanib, bioxilma-xilik va sistematika muammolarni tavsif etish xaddan tashqari qiziqarli bo'lib qolmoqda. Biroq, shashubhasiz, faqatgina molekulyar-genetik usullardan foydalanishda sistematiklar bilan hamkorlikda bo'lmasdan, mavjud turni aniq ba'holash mumkin, lekin ularni tavsiflash borasida yordam bera olmaydi. Hozirgi paytdagi bu mavjud nuqtai-nazar asosidagi bu holat shundan iboratki, bioxilma-xilikni o'rganish aniq

guruhlarning mutaxasistlariga tayangan holda hamda molekulyar-genetik usullar asosida amalga oshirish lozimdir (Shneer, 2007). Bunday qarashlarning afzalligi shubhasiz shundaki, alohida olingen ketma-ketliklarning DNK-markerlari u yoki bu turlar vakillarini mutaxasist tomondan mazkur turning dastlabki aniq identifikatsiyasi qilinmaganligi kam ma'lumotlidir (bunday usuldagi bioxilmalilik keng tarqalgan), lekin faqatgina morfologik usullarni qo'llash ham, bioxilma-xilikni hali aniqlanmagan qismini ochib berolmaydi.

2003 yili “**DNK-shtrix kod**” usuli yoki molekulyar “**barkodlash**”ni taklif etishdi. Bu usulning zamirida shunday faraz mavjudki, qaysiki genom sohasining uncha katta bo'lмаган razmeri topildi (600-800 nukleotidlar), shunday qilib, bitta tur individlari yoki turli xil turlar ketma-ketligi uzunligi bir xil bo'ladi. Shunday sohani DNK-shtrixkod (barcode) deb atashdi. Ob'ekt DNKsining bu sohasi ketma-ketligi ma'lum bo'lgach, uni ma'lumotlar bazasi (IBOL) bilan solishtiriladi, qaysiki ob'ektning bu ketma-ketligi boshqa barcha turlar solishtiriladi va o'r ganilayotgan tur tezda aniqlanadi. Agarda ketma-ketlik bazadagi mavjud biror bir to'g'ri kelmasa, demak bu yangi tur, ya'ni noma'lum tur topilganidan darak beradi. Hayvonlarning shunday sohasi o'r ganish maqsadida mitoxondrial genning fragmentlari, ya'ni tsitoxromoksidazaning kodlovchi 1 subbirligi (SO1) tanlandi. Bu usul hozirgi vaqtida juda keng tarqaldi, ma'lumotlar bazasi (IBOL) doim yangi ketma-ketliklari bilan to'ldirilmoqda.

Biroq bu usulda ham bir necha kamchiliklar mavjud. Birinchidan, tabiiy, mitoxondrial genlar fragmentlari bo'yicha turlar mansubligini aniqlashga nisbatan e'tirofli. Bu holatda mitoxondrial *introgressiya* (introgression- introgressiya - turlar o'rtasidagi gibriddanish natijasida boshqa turni genni olishi) bilan to'qnashish kelishni mumkin, psevdogenlar mavjudligi va boshqalarni hisobga olish kerak. Bundan tashqari, faqat mitoxondrial DNK ketma-ketligi bilan yadro DNKsi polimorfizmini baholay olmasligi mumkin, bu hali aniqlanmagan bioxilma-xilikni baholashda juda muhimdir. Shunday bo'lsada, bu usul har doimgiday hozirda bioxilma-xilikni o'r ganishda asosiy molekulyar-genetik usul bo'lib hizmat qilmoqda.

Sistematika va filogeniyada molekulyar-biologik belgilarning qo'llanilishi o'tgan asrning 70-yillarida tug'ildi. Bu vaqtida sistematik tuzilishlar uchun eukarioitlarning nukleotidlar ketma-ketligining 18S, 5,8S yoki 28S rDNK genlari universal marker sifatida tanlanishi, yuqorida aytilgandek, sekvenirlash usulining takomillashuvi va materillarni qisqa muddatda olish va qayta ishslash imkonini berdi. Genomda ribosomal ketma-ketliklar ko'plab nushalarda bor bo'lishi va bir necha qismlardan tuziladi, kaysiki ulardan biri, ribosoma funksional subbirligiga tegishli (18S, 5,8S yoki 28S) bo'lib, asosan stabildir, ya'ni *evolyutsion konservativdir*, bu holda, ITS1 va ITS2 ichki spayser ketma-ketligi, qaramaqarshi o'laroq, evolyutsion o'zgaruvchandir (*labilniy*). Konservativ sohalar polimer zanjirli reaktsiyalar birinchi bosqichda - praymerlarni tadqiq qilinayotgan DNK- matritsaga ulanishida, variabel sohalar esa, turlarni identifikatsiyalashda hizmat qiladi. Turga xos variabel sohalarning o'xshashlik darajasi turli xil turlarning evolyutsion qarindoshligini ifodalaydi. Ribosomal genning aynan bu muhim xususiyati ular qismlaridan turli darajadagi taksonomik

muammolarni echishda foylaniladi (Blaxter, 1998; Nadler et al., 2000; Nguyen et al., 2001). Birinchi bo'lib, molekulyar ma'lumotlar asosidagi klassifikatsiya tizimi Nematoda sinfida bo'lib, bundan 15 yil oldin paydo bo'ldi (Blaxter et al., 1998). Bu ma'lumotlar o'sha davrda SSU 18S rDNA sohasi bo'yicha olingan bo'lib, bu klassik sistemadan butunlay farq qiladi.

Sistematika va filogeniya o'zining tuzilishini «ribosomal» va «oqilli» daraxtlar tuzish uchun yangi ulkan usulga ega bo'ldi, sekvenirlash esa oddiygina laborant ishi bo'lib qolmoqda. (*Bu xali bizda emas*). Shuni aytish mumkin-ki, biologiyada yangi paradigma shakllandi – organik olamningda barcha shakllarida DNK turli-tuman ko'rinishlari bor.

Biroq, taklif etilgan molekulyar filogenetik daraxtlarda nomuvofiqliklar paydo bo'ldi. Gohida bu tuzilishning farqi nafaqat sikvensning texnik takomillashmaganligi emas, balki bitta laboratoriyada olingan ma'lumotlarda ham kuzatildi. Buning sabablari o'r ganilmoqda va tahlil qilinmoqda. Hammasi ochiq oydin ma'lum bo'layaptiki, sistematika va filogenetikaning sermahsul rivoji, morfologik, fiziologik va molekulyar ma'lumotlari bilan birgalikda – organizmlarning sistematikasi va filogenetikasining sintetik tizimini ishlab chiqishdir. Shunday qarashlar yuz yillikning 90 yillardan boshlab aktiv ishlanmoqda (Patterson, 1994; Margulis i dr., 1996).

Filogenetik rekonstruktsiyalarni yuqori takonomik darajada bajarish uchun boshqa genlar yoki yadro DNKsi sohalari, masalan, elongatsiya omili (elongation factor, Ef-la), oqsil issiqlik stresi genlari, miozinlar, gistonlar foydalaniadi. Shu bilan birga oqsillarning aminokislotalar ketma-ketligi va RNKnинг ikkilamchi tizimlari ham taqoslanadi. Oila va avlodlar darajasida esa mitoxondrial genlar tahlil qilinadi.

Shunday qilib, har qanday yirik taksonlarning taksonomik muammolarni echishda "molekulyar" usullarni to'laqonli qo'llashda shu guruhga ichiga kiruvchi turlar, avlodlar va x.k. masshtabli nukleotidlar farqini o'r ganish hamda bu farqlarda aniqlangan tadqiqot omillari, shu jumladan o'r ganilayotgan populyatsiyalar ("geografik" omil) o'zaro uzoqligini ta'sirini o'r ganishni talab qiladi.

Ushbu majmuada eukariot organizmlarni 18S, 5,8S va 28S ribosoma DNK kodlovchi genlari bo'yicha identifikasiya qilishda qo'llaniladigan qulay markerlarni ishlatish oddiy va tushunarli shaklda tavsiflagan. Hamma bosqichlar – material yig'ishga oid talablar, DNK ajratish va PTsR-amplifikatsiya hamda filogenetik daraxt tuzish aniq va ketma-ket bayon etilgan.

Bu qo'llanma "Amaliy molekulyar zoologiya"ni o'r ganuvchilarga mo'ljallangan bo'lib, molekulyar-genetik ma'lumotlarni asosida hayvonlar sistematikasi, taksonomiyasi va filogeniyasini, morfologik va fiziologik ma'lumotlar bilan birga keng qo'llash imkonini berishga hizmat qiladi.

### **Bioxilma-xillik tushunchasini aniqlash**

Bioxilma-xillikni o'r ganish biologiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ammo, birinchi navbatda "Biologik xilma-xillik" tushunchasiga nimalar kirishini aniqlash zarur. Zamonaviy kontseptsiyaga ko'ra, organizmlar bioxilma-xilliligini barcha muhitlardagi tirik organizmlar, quruqlik, dengiz va

boshqa suv ekotizimlardagi ekologik komplekslar: tur ichida, turlar va ekotizimlar o'rtasida xilma-xillik tashkil qiladi. (*Rio-de-Janeyro, 3-14 iyun 1992 yil, Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit va rivojlanish* konferentsiyasida qabul qilingan biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konventsya).

Bunga ko'ra biologik xilma-xillik uch tipga bo'linadi:

- ekotizimlar va landshaftlar (yashash joyining xilma-xilligi);
- turlar xilma-xilligi;
- genofond (genetik xilma-xillik).

Genetik xilma-xillik yoki genetik polimorfizm – populyatsiyalarning belgilar yoki tabiatning genetik markerlari xilma-xilligi [Ramel, 1998]. Genetik xilma-xillik tur yoki populyatsiya guruhlari, populyatsiyalarning genetik xususiyatlari muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Genetik xilma-xillik genetik markerlarni tanlashga, bir qancha o'zgaruvchan parametrarda ifodalanadi [Leffler, 2012]:

1. Virtual geterozigotali -  $\pi$ , ya'ni, populyatsiyada ikki tasodifiy tanlangan genotiplinofunktional nukleotid sayt o'rtasidagi farq nisbati.

2. Lokusdagi allellar soni.

3. Genetik masofa (populyatsiyalar o'rtasidagi genetik xilma-xillikni baholash).

Biz bioxilma-xillikni faqat ikki turdag'i ya'ni turlar xilma-xilligi va populyatsiyaning genetik polimorfizmini molekulyar-genetik metodlardan foydalanim o'rjanamiz.

### **Turlar xilma-xilligi. Jumboqli turlar**

Ko'p hollarda faqat morfologik mezonlar yordamida turlar tarkibini o'rganish qiyin yoki "baxsli, mujmal turlar"ni ajratish hatto imkonsiz [Bickford, 2006]. Bu holda albatta molekulyar genetik metodlarni qo'llash kerak.

**Jumboqli (mujmal)** deb nomlangan turlar, ikki yoki undan ortiq tur bir tur sifatida tasvirlangan (bir nomga ega) va eng kamida tashqi morfologik farqlar kuzatiladi [Bickford, 2007]. Birinchi, bu turlar molekulyar-genetik usullardan ancha avval Linney klasifikatsiyasi qabul qilingan paytda kashf etilgan.

Jumboqli turlar, shuningdek, o'xshash turlar yoki egizak turlar ham deyiladi. Birinchi marta "egizak-turlar" atamasini [Mayer, 1963] kiritgan. "Jumboqli turlari" termini keyinchalik paydo bo'ldi [Henry, 1985], ammo ko'proq to'g'riroq deb hisoblandi, ba'zi mualliflar "egizak-turlar" atamasini faqat qiz turlar uchun, qaysiki umumiylar shoxdan rivojlangan turlarga xos deb hisoblashdi. Bir qancha, jumboqli turlar xaqiqatdan ham qiz turlarga mos keladi, bu xollarda sinonim hisoblash mumkin, ammo ko'p mualliflar hammasini "jumboqli turlar" deb atashmoqda [Knowlton, 1986]. Bundan tashqari, bir qancha mualliflar "jumboqli turlar" va "psevdomujmal turlar" tushunchalariga ajratgan. Aniqlangan morfologik belgilarga qarab ajratish bilan birga mujmal turlar molekulyar-genetik metodlar yordamida ajratiladi. Bu holda turlar "psevdokriptik" turlar deb ataladi [Saez, 2003].

**Simpatrik jumboqli turlar.** So'nggi uch o'n yilliklarda molekulyar genetik usullar yordamida psevdokriptik va jumboqli turlarning soni DNK-ketliklar tahlil asosida aniqlandi [Carr, 2010]. Bu usullar PZR (polimeraza zanjirli reaksiya) asosida amplifikatsiya metodlari va rivojlanishi hamda muhim ko'paytirish

usullariga asoslangan texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Biz tur asosi har doim morfologik o'zgarishlar bilan birga emas va bu holatda, turlarning haqiqiy soni ham muhim sanaladi, bu faqat morfologik kuzatishlar asosida izohlanadi. Biroq, ba'zan genetik usullardan foydalanish tasvirlangan turlarning sonini oshirish uchun emas balki kamaytirishi mumkin.

Bir qancha turlar muhim morfologik xilma-xillikka ega va ba'zi hollarda ko'p sonli sistematiklar morfologik, rang o'zgarishi [Knowlton, 1987]. Genetik tahlil bir necha turli taksonlar kenja turlar va turlar orasida asossiz genetik izolyatsiya yo'qligini ko'rsatadi, bu esa chalg'ituvchi bo'lisi mumkin [Nygren, 2011]. Ba'zi sut emizuvchilarni o'rganish tarixida bir qancha turlar alohida bir nechta turlarga ajratilgan va yana taftish qilish natijasida bir necha morfologik tiplar keyin bir tur ekanligi kuzatilgan [Linnaeus, 1746, 1758; Agassiz, 1862; Haeckel, 1879; Mayer, 1910; Kramp, 1961]. Bu jumboqli simpatrik turlar bioxilma-xillikni hisobini olishda muhim, populyatsiya tuzilishi va dinamikasini o'rganish, shuningdek, jamoalar ekologiyasini o'rganish uchun juda muhim ekanligini aytish lozim [De Leon, 2010]. Ko'plab populyatsiya dinamikasi (ayniqsa, dengiz) jamoalari hali yaxshi o'rganilmagan va buni sabablaridan biri mujmal turlari soni ko'pligidir [Eckert, 2003]. Biroq, turlarning morfologik ma'lumotlari va biologik ma'lumotlari bir qancha savollar tug'diradi, turlari orasidagi genetik masofalar va qaysiki tur ichidagi genetik polimorfizmga mos keladi. Turning biologik kontseptsiyasi alohida tur sifatida tanlash uchun asosiy mezon ko'ra bir tur doirasida organizmlar bir-biri bilan erkin va ko'payishda izolyatsiyalanmagan xolda ko'payishadi [Mayr, 1970]. Simpatrik jumboqli turlar orasida molekulyar-genetik xilma-xillik borligi ular o'rtasida chatishish yo'qligi murakkab turlarning mavjudligi isbotidir.

**Allopatrik turlar va kosmopolit turlar.** Geografik ajralgan turlar, geografik izolyatsiyalangan turlarni o'zaro chatishtirish imkonи yo'q, bu esa allopatrik turlarni izohlashga qat'iy dalil bo'la olmaydi. Ayrim mualliflar allopatrik guruhlar o'rtasida divergentsiyani nazorat qilishda 3-5% nukleotidlarning almashishinishi mumkin deb hisoblaydi. Ko'pchilik mualliflarning fikriga ko'ra yadro genoming 5% gacha kam yoki ko'p farq qilishi ikki sinonim turlarning chatishishida kam xatolikni keltirib chiqaradi. Ayrim mualliflarning fikricha, bu savolga javob topishda turli takson qiz turlari orasida ko'payish bo'yicha izolyatsiyalangan turlarning divergentsiyasi natijasidir. Biroq, polimorfizm darjasи genom darajasida nafaqat yuqori taksonlar, balki yaqin turlar o'rtasida ham, shu takson darajasida ham o'zgaradi. Ko'payish bo'yicha izolyatsiyalanish va ma'lum genetik masofada joylashishi ishonchli bog'liqlik katta genetik masofa deb belgilangan (bu turlarning paydo bo'lish vaqt) bu esa ular o'rtasidagi ko'payish vaqtini belgilaydi [Coyne, Orr, 1989, 1997; Sasa, Chippindale, Johnson, 1998; Presgraves, 2002; Mendelson, 2003]. Hayvonlarda reproduktiv to'siq *Drosophila* avlodi vakillari orasidagi simpatrik turlar orasida divergentsiya darjasи kamroq allopatrik va ko'payishdan keyin ko'payishdan olingi alohidalanishga nisbatan tezroq sodir bo'ladi (pushtsiz yoki steril duragaylarda [Coyne, Orr, 1989, 1997; Howard, 1993; Butlin, 1995; Hostert, 1997] paydo bo'ladi. Bu bepushtlik gibrid turlar o'rtasidagi zararli epistatik ta'sirlar izchil asta-sekin to'planishi natijasida

rivojlanadi, bu “turlar xilma-xilligi soati” deb ham ataladi [Coyne, Orr, 1989, 1997; Sasaet, 1998; Orr, Turelli, 2001].

Dengiz umurtqasizlaridan polixetlar sinfining geografik tarqalishi va turlar tarkibi yaxshi misol bo’ladi. Hozirgi vaqtda polixetlarning 10000 dan ortiq turi ma’lum bo’lib guruh xamma joyda tarqalgan va ular dengiz ekosistemasining muhim komponentlaridan hisoblanadi, ularning geografik tarqalishi deyarli o’rganilmagan. Polixetlarning kattagina qismi kosmopolit turlardir. An’anaviy sistematik yondashuvga asosan bir tur morfologik jihatdan farq qilmaydigan turlardan hosil bo’ladi. Hozirgi zamonda polixetlarning biogeografiyasiga doir ilmiy ishlar ko’payib bormoqda. Hozirgi kunda “keng tarqalgan” ko’ptukli chuvalchanglarning turlarini asoslashda klassik taksonomiya usulari kosmopolitizm xodisasini asoslashga etarli bo’lmay qoldi. Ko’p xollarda yuqorida aytilganidek, reproduktiv alohidalanishga qat’iy dalillar topilmadi, ammo, keng qamrovli tahlillar shuni ko’rsatmoqda-ki ham genetik, ham morfologik farqlar bilan birga turlarning ekologik farqlari mavjud. Masalan, *Owenia fusiformis* Delle Chiaje, 1844 (Oweniidae), *Sternaspis scutata* Ranzani, 1817 (Sternaspidae) va *Scoloplos armiger* (Muller, 1776) (Orbiniidae) turlari xamma okeanlarda, xar xil chuqurliklarda va amalda turli xil xaroratlarda uchrashi aniqlangan. Ammo, ohirgi ma’lumotlarga asosan *O. fusiformis* kompleks turlar deb topilmoqda. Hozirgi kundagi to’laqonli tadqiqotlardan RAPD usuli yordamida aniq nukleotidlar ketma-ketligi solishtirilmagan. Uning yordamida aniqlanishicha *Neopetitia* (*Petitia*) *amphophthalma* Siewing, 1956 (Syllidae) ular kosmopolit turlar emas balki *Ctenodrilus serratus* (Schmidt, 1857) ning alohida amfianlantik tarqalgan kompleks turlar vakilidir. Keyinchalik yadro va mitoxondriya markerlardan foydalanib tadqiqotlar olib borish yo’lga qo’yildi. *S.armiger* (Orbiniidae) turi V. Bleydorn [Bleidorn, 2006] hammuallifligida o’rganilgan kosmopolit turdir. Yuqorida aytil o’tilganidek, bu turlarning vakillari hamma joylarda, ham litoral, ham suvning chuqur qismlarida uchraydi. Shimoliy muz okeani xududida bu tur polixetlarning keng tarqalgan turi hisoblanadi. Yadro va mitoxondriyalı markerlar yordamida olib borilgan tadqiqotlardan ma’lumki *S.armiger* kosmopolit tur hisoblanmaydi, o’zi kompleks tur sanaladi. Tinch okeanida esa ikkita *S.armiger* turlari va ikki yoki uch turi Atlantika okeanida aniqlangan. Yana bir yorqin misol, Nigrenning molekulyar-genetik tadqiqotlari hisoblanadi. Tsirkumboreal va transarktika turlar va ularning morfologik farqlari katta qiziqish uyg’otadi. O’tgan asrning boshlanishi va o’rtalarida bir qancha ninaterililar turlari (dengiz yulduzlari va dengiz tipratikonlari) morfologik belgilariga asosan transarktika va tsirkumboral tarqalishi haqida ilmiy ishlar chop etilgan.

Keyinchalik ayrim asosiy taksonlar qarindosh-turlar hisoblangan. Kompleks dengiz yulduzlarining *Leptasteria* avlodi arktika va subarktika turlar o’rganilishi natijasida o’ziga Arktika va Shimoliy Atlantikaning markaziy Kaliforniyadan to Alyaskagacha bo’lgan xududda tarqalgan 60 turni biriktirishi ma’lum bo’ldi. Alyaska xududidagi kompleks turlar dastlabki urinishlarda dengiz yulduzlarining allazim variatsiyasi sifatida o’rganilgan, xozirgi vaqtda esa keng qamrovli tadqiqotlar, Arktika va Antartikaning ko’plab nuqtalaridan tekshirishlar uchun

to'plangan materiallar ko'p sonli genlar aniqlangan.

Molekulyar metodlar ushbu guruhlarni ajratish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Shu kabi ishlar ko'plab olib borilmoqda. Jumboqli turlarning kompleksini tadqiq qilish juda qiyin. Ammo, bu kabi ishlar o'rganilmagan bioxilma-xillikni tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega bioxilma-xillikni tadqiq qilishda mujmal turlar yoki tur ichidagi polimorfizmni o'rganish juda muhim sanaladi.

**Jumboqli turlar paydo bo'lishi.** Molekulyar-genetik ma'lumotlar jumboqli (mujmal) turlarni chuqur suvlardagi mollyuskalardan to chuchuk suv baliqlarigacha va tropik kapalaklardan to arktika o'simliklarigacha alohida turlarni guruhlarga ajratishda genetik differentsiatsiya qilishda morfologik va geografik ma'lumotlarni to'ldirishda, ekologik yoki xulqiy farqlarni to'ldirishda muhim sanalanadi. ISI Web of Science (<http://G'G'scientific.thomson.comG'productsG'wosG>) va Zoological Record Plus (<http://G'G'www.csa.comG'factsheetsG'zooclust-set-c.php>) bazalaridagi ma'lumotlarni o'rganish natijasida "jumboqli turlar" va "egizak turlar"ga doir oxirgi 50 yilda 3500 dan ortiq maqolalar mavjud. Bunday katta yashirin genetik xilma-xillik jumboqli turlar soni bilan yashash muhit o'rtasida bog'liqlik bor yo'qligi xaqida savol tug'ilishiga sabab bo'ladi. Jumboqli turlarga bag'ishlangan maqolalarni sanasak ko'pchilik tadqiqot ishlar u yoki bu guruh hayvonlar bilan bog'liq. Kam sonli maqolalar yuksak o'simliklar va mikroorgnizmlarning jumboqli turlariga bag'ishlangan. Shundan kelib chiqqan xolda olimlarning u yoki bu guruhlarning jumboqli turlarini o'rganishi natijasida yakdil bir xulosaga kelishi qiyin. Ko'pchilik pashshalarning kosmopolit turlari turli xil kontinentlarda tarqalgan (jumboqli turlar soni nisbatan kamroq), ammo, ko'pchilik mollyuskalar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar (xavaskorlar chiroyli chig'anoqlarini terishadi) fikricha mollyuskalarning tarqalishi morfologik xilma xillikka bog'liq ("parchalangan" turlar). Tropik va o'lik xududlardan aniqlangan jumboqli turlarni soni sanashda bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Ma'lumki ikki, uch yoritilgan turlar tropik mintaqalardan topilgan, ammo jumboqli turlarning yarmi o'lik xududlardan aniqlangan. Bu esa jumboqli turlarning paydo bo'lish qonuniyatini yoritishda o'lik xududlardani topilgan turlar ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan aniqlanganligi bilan izohlanadi [Carroll, 2004].

Jumboqli turlarning paydo bo'lishi birinchi navbatda organizmni aniqlashda morfologik belgilariga asoslanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek turlar xilma-xilligi xar doim xam morfologik o'zgarishlar bilan birga bo'ladi [Templeton, 1981].

#### **Tur ichidagi genetik polimorfizm**

Tur ichidagi va populyatsiyalar ichidagi polimorfizm juda ko'p savollarni keltirib chiqaradi. Tabiiy populyatsiyalardagi genetik xilma-xillikni saqlanishining qanday mexanizmi mavjud? Populyatsiya ichidagi polimorfizmlik darajasi uning soni bilan bog'liq-mi? Genetik xilma-xillikni past darajasi qanchalik o'zgaruvchan sharoitda moslashishi imkoniyatini kamaytiradi? Bu savollar zamonaviy populyatsion genetikaning rivojlanishiga turki bo'ldi va evolyutsion genetika va qiyosiy genomikaning molekulyar-evolyutsiyya-nol-gipotezasining neytral

nazariyasini rivojlanishi imkonini berdi [Kimura, 1968; Kreitman, 1996; Fay, 2003]. Bu savolning tushunish uchun bundan 50 yil oldingi allozim tadqiqotlarida o'zgarishlar yuz berdi [Crow, 2008; Lewontin, 1974].

Hozirgi vaqtida sevenirlash texnologiyasining revolyutsiyasi natijasida bu kabi savollarga tegishli ma'lumotlarni sistemalash ishlari qilinmoqda. Shunday qilib, turli eukariot taksonlari vakillarning nukleotidlarining o'zgaruvchanligini uchta lokusini qiyoslash oraqlari ish qilindi [Leffler, 2012]. Bunda taqqoslash uchun faqat o'zgargan sinonim saytlaridan foydalanildi. Shuni aytish kerak-ki, o'zgargan sinonim saytlar neytral bo'lmasligi ham mumkin, o'zgargan sinonimlar RNK stabiligiga va splaysingga ta'siri kabi ma'lumotlar mavjud [Chamary, 2006].

2003 yili Hebert [Hebert, 2003a,b] o'z maqolasini e'lon qildi, unda DNK-shtrixkodni asoslaydi va bu dasturni rivojlantirishni taklif etadi. Bungacha molekulyar-filogenetik tadqiqotlariga bag'ishlagan ko'pgina maqolalar e'lon qilingan va bitta va shu genetik markerdan foydalanib, hayvonlarni yaqin turlarini taqqoslash orqali yagona tizim yaratish edi.

### **Trixostrioglid nematodalarining polimorfizm gipotezasi.**

Trichostrongyloidea Cram, 1927 katta oilasi – Nematoda sinfining keng tarqalgan taksonlari biri hisoblanadi. Uning vakillari keng doiradagi xo'jayinlarda parazitlik qilib, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarda qayd qilingan. Bu katta oilani yirik vakili Trichostrongylidae Leiper, 1912 oilasi bo'lib, ularning ichida turlar tarkibi va tarqalish kengligi bo'yicha birinchilardan biri Ostertagiinae Lopez-Neyra, 1947 kenja avlodni hisoblanadi.

Ostertagiinae Lopez-Neyra, 1947 kenja oilasiga mansub ba'zi bir turlarning erkak zotlari (ko'p holatlarda ikkita) morfologik shakllariga ko'ra o'zaro farqlanishga egaligi tahmin qilinadi (Drozd, 1995). Bu gipotezaga asos bo'lgan holat – ba'zi erkak zotlar boshqa turga mansub erkak zotlari bilan birga uchratishi kuzatildi. Juftlikdagi bu morfalardan (shakllar) biri dominant holatda bo'lib, individlari miqdoriga ko'ra dominant holatda bo'ladi (major), ikkinchisi esa kam, ya'ni minor deb ataladi. Major va minor morflardan iborat erkak individlarni an'anaviy tarzda tasniflashda ularning spikulasi va jinsiy konussimon sohasi bo'yicha farqlanishlarga ko'ra, turli xil avlodlarga kirishi aniqlanadi.

Dastlab, Ostertagiinae kenja oilasida *Ostertagia*, *Orloffia*, *Teladorsagia*, *Marshallagia* va *Spiculopteragia* avlodlarining morfalarini aniqlash orqali o'n to'rtta polimorf turlarga ajratilgan edi (Drozd, 1974). Ulardan beshta avlodni major formalarga (*Ostertagia*, *Orloffia*, *Marshallagia*, *Teladorsagia*, *Spiculopteragia*) va to'rta avlodni esa minor turlarga (*Skjabinagia* Kassimov, 1942; *Grosspiculagia*; *Rinadia*; *Apteragia* Jansen, 1958) ajratildi. Keyinchalik bu ro'yhat o'n to'qqiztaga kengaytirildi (Drozd, 1995). Shunday qilib, quvushshoxlilar so'yilib ko'rilmaga *Skjabinagia* "turlari" doim *Ostertagia* avlodni major turlari bilan birgalikda uchrashligi qayd etildi. O'z navbatida *Rinadia* va *Apteragia* avlodni "turlari" ham soni jihatdan ko'p uchrovchi *Spiculopteragia* avlodni turlari bilan, *Grosspiculagia* "turlari" esa *Marshallagia* avlodni turlari bilan uchradi. Bunda har kaysi juftlik ma'lum tur belgilari bilan o'xshaydi, lekin avlod belgilari bilan farq qiladi. Har bir populyatsiyada major va minor formalarning xissalari, odatdagicha, har qaysi juftlik uchun o'zgarmay qoladi. Yig'ilgan

ma'lumotlar asosida shunday **gipotezaga** kelish mumkin-ki, bu juftliklar bitta turning polimorf formalardir, qaysiki morfologik jihatdan farqlanadi va shuning uchun turli avlodlarga joylashtirilgan (Drozd, 1995).

**Nazorat savollari:**

1. Amaliy molekulyar zoologiya nimani o'rganadi?
2. Evolyutsiya nima?
3. Dezoksiribonuklein kislotasi (DNK) modeli kimlar tomonidan kashf etilgan?
4. Biologik xilma-xillik terminini aniqlang va tushuntiring?
5. Jumbog'li turlar deganda nimani tushunasiz?
6. Turlar ichidagi polimorfizm nima?
7. «Egizak-turlar» terminini fanga kim birinchi kiritgan?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bickford D., Lohman D.J., Sodhi N. S., Ng P. K. L., Meier R., Winker K., Ingram K. K. Das I. Cryptic species as a window on diversity and conservation // Trends Ecol. Evol. -2007. - V. 22. -No.3. -P. 148-155.
2. Банникова А.А. Молекулярная филогенетика и современная систематика млекопитающих// Журнал общей биологии. - 2004. - Т.65. - N4. - С.278-305.
3. De Ley P., Blaxter M. Systematic position and phylogeny // The biology of nematodes / Ed. by D.L.Lee. L.; N.Y.: Taylor and Francis, 2002. P. 1-30.
4. Шнеер В.С. О видоспецифичности ДНК: 50 лет спустя. Обзор // Биохимия. – 2007. - Т. 72. - С. 1690-1699.

## **2-mavzu: HAYVONOT OLAMI XILMA-XILLIGI O'RGANISHDA MOLEKULYaR USULLARINI QO'LLASH**

**REJA:**

Genosistematiqa. Filogenetika. Hayvonot olamini o'rganishda molekulyar bioximiya va genetika usullarni qo'llash tarixi. Polimeraza zanjirli reaktsiya. Sekvenirlash. Turlarini identifikatsiyalashda foydalaniladigan molekulyar markerlar. Mitochondrial genlar (DNK-barkoding), yadro genlari.

### **Bioxilma-xilikni o'rganishda molekulyar bioximiya va genetika usullarni qo'llish tarixi**

Bioxima-xilik va sistematikani o'rganishda 1960-1970 yillarda Allozim texnologiyasi (izoferment) analizi ishonchli joyni egalladi. Bu izofermentlar polimorfizmni ochilishi bilan bog'liq. Fosfolipidlar tarkibi bo'yicha ham talay ishlar amalga oshirildi.

Parazit nematodalar turining populyatsion strukturasini aniqlash uchun birinchi navbatda turli fermentlar, oqsillar elektroforezi metodlarini qo'llashga asoslangan. Bunda kriptik turlarni aniqlashda elektroforez haraktida oqillar izoformalarni bo'linish usulidir.

Bu metodlar ko'p mehnat talab qiluvchi va aniqlanadigan fermentlarning etarli darajada turg'un (stabil) bo'lmasligi bois hamisha ham ishonchli emas edi. Shunga qaramasdan, muhim natijalar olingan. Muhim ishlar guruhiga italiyalik prof. L.Padjining tadqiqotlarini kiritish zarur. Uning rahbarligida dengiz hayvonlarining parazit askaridalari asosiy fermentlarining o'zgaruvchanlik spektrlari tadqiq qilindi. Jumladan, *Pseudoterranova decipiens* nematodasi populyatsion strukturasini o'rganish uchun 16 ta enzim lokusi, shu jumladan bir nechta malatdegidrogenaza, esterazalar va boshqa fermentlar ishlataldi (Paggi et al., 1991). Bu fermentlarning spektrlaridagi aniq farqlar ushbu nematodaning shimoliy atlantika populyatsiyasi uchta genetik mustaqil turlardan iboratligini ko'rsatdi (A, V, S). Faqat bir marta duragay individ – A va V shakllari chatishishining hosili aniqlandi. Padji va hammualliflarining ko'rsatishicha, har bir uchtalik shakl (forma)lar chegarasida genetik xilma-xillikning darajasi juda kam bo'lib, ushbu formalar o'rtaida esa ancha katta (har bir guruh ichidagi farqdan ikki darajada ko'p). Ushbu uch guruhining ajralish davri 2-4 million yilni tashkil etadi. Fermentlarni tadqiq etish natijasidagina ushbu uch guruh o'rtaidagi morfologik farqlar, shuning uchun ularning geografik tarqalish xususiyatlari aniqlandi. Shuni ham ta'kidlash zarurki, bu formalarning har biriga o'ziga xos xo'jayinlari mavjud.

Xuddi shunday ishlar Ostertagiinae kenja oilasi nematodlarining taksonomik holati bo'yicha ko'p izlanishlar olib borilgan. Jumladan, *Teladorsagia* (*qOstertagia*) avlodini uchta, *T. circumcincta*, *T. davtiani* va *T. trifurcata* turlari statusi borasida noaniqliklar mavjud edi. Keyinchalik, bu turlarni allozim analizi asosida ko'rib chiqib, ular bitta turning turli morfalari degan xulosaga kelishgan

(Andrews & Beveridge, 1990).

Yangi uslublardan foydalanish, xususan PZR, polimorf turlar borasidagi muammolarni echishda va yangi ma'lumotlarni olishda imkon yaratdi. Bunday amalga oshirilgan tadqiqotlarda *Ostertagia gruehneri* Skrjabin, 1929 va *O. arctica* Mizkewitsch, 1929 turlarining ITS-1 ichki transkriptsiyalanuvchi speyser) va ITS-2 sohalari bo'yicha nukleotidlar ketma-ketligi solishtirma tarzda o'rganilganda, yaqqol tarzdagi farqlanishlar qayd qilinmagan bo'lib, bu holat ularning bitta turga mansub ekanligidan dalolat beradi (Dallas et al., 2000). Bunday amalga oshirilgan tadqiqotlarda *Teladorsagia circumcincta* (Stadelman, 1894), *T. trifurcata* (Ransom, 1907) va *T. davtiani* (Andreeva et Satubaldin, 1954) turlarini ribosoma DNKsi tarkibida ITS-2 sohasi (ichki transkriptsiyalanuvchi speyser) solishtirma tarzda o'rganilganda yaqqol tarzdagi farqlanishlar qayd qilinmagan bo'lib, bu holat ularning bitta turga mansub ekanligidan dalolat beradi (Stevenson et al., 1996, Amirov va boshq., 2014).

#### DNK-shtrixkodlash

Aslida nima taklif qilingan edi? Foydalaniladigan namunadan DNK ajratishda, birinchi navbatda taksonomik tarkibi shu sohadagi ekspert tomonidan har tomonlama aniqlangan va vaucher namunaning saqlangan bo'lishi kerak. Agarda, namuna juda kichik bo'lsa va undan biror qismidan DNK ajratishni imkon bo'lmasa, unda aniq fotografiyasi bo'lishi shart (e-vaucher). Genbank (GenBank) bazasidagi ma'lumotlarning aniq emasligi va muammolardagi xatolar alaqachon ilmiy adabiyotlarda muhokama qilinmoqda. So'z, sekvenirlash hatosida, namunadagi turlarni taksonomiyasini aniqlashda beparvolik (etiketlarni chalkashtirish, materialni etarlicha tekshirmaslik) yoki ob'ektiv sabablar ta'sirida, variabellik hollarda va yomon ajraluvchi turlar xususida boradi [Tautz, 2002; Harris, 2003; Vilgalys, 2003]. Masalan, ayrim guruh qo'ziqorinlarning noto'g'ri aniqlanishi, to 20 % tashkil qilishi mumkin [Bridge, 2003; Nilsson, 2006]. Namunalarning yig'ish tizimida aniq ma'lumotlar uchun alohida ahamiyat beriladi (yig'ish joyi, aniq koordinatalari, yig'uvchining familiyasi). Ilgari ma'lumotlar bazasida bunday fikrlar muhokama qilingan, lekin hozirda bunday ma'lumotlar albatta bo'lishi shart. Barcha organizmlar uchun xos bo'lган marker tanlash ideyasi mavjud edi. Misol uchun, hasharotlar sistematikasiga bag'ishlangan obzorda [Caterino, 2000], mualliflar markerlarni standartizatsiya qilish muhimligini muhokama qilishdi, shunday qilib, turli tadqiqotchilar, turli markerlarni alohida guruhlari bo'yicha yaxshi samarasini hisobga oldilar (asosan quyi taksonomik darajadagi guruhlар uchun), natijada qiyoslash va umumlashtira olmadilar.

Tanlanadigan yagona **gen** quydagi xossalarga ega bo'lishi kerak: u nisbatan qisqa fragmentli soha bo'lishi kerak, etarlicha variabel bo'lib, yaqin qarindoshlik turlarni ajratishi, buning uchun bu fragment o'zidan yon tomonlarda konservativ soha bo'lishi kerak (etarlicha konservativ bo'lishi, chunki keng o'ziga xos praymerlar bilan amplifikatsiya qilinishi kerak). Sekvenirlash engil va arzon bo'lishligi uchun nisbatan kichik razmerdagi fragmentlar (700-800 j.n atrofidagi) bo'lishligi kerak. Tekislashni oddiy bo'lishligi uchun unda bo'linish (indeley) tarkibi kam bo'lishi kerak. Standart gen sifatida 5' fragmenti, oqsil mitoxondriyasining tsitoxrom-oksidaza kodlovchi 1 subbirligi (SO1 yoki cox1)

tanlandi, qaysi-ki ilgari turlar o'rtasidagi o'garuvchanlik darajasini yaxshi ko'rsatgan [Moore, 1995]. CO1 geni tadqiq qilingan mitoxondrial genomlarning hammasida ishtirok etadi, u 1540 nukleotidlarni o'z ichiga oladi, qiyosiy tadqiqotlar uchun odatda uning variabel qismi yaqin 650 j.n. foydalaniladi. Uning amplifikatsiyasi uchun standart paymerlari yaratildi [Folmer, 1994; Zhang, Hewitt, 1997].

Yadro genlariga nisbatan mitoxondrial genlar bilan ishslash anchagina qulay. Bu genlarni engilgina amplifikatsiya qilinadi (ayniqsa buzilgan materiallar), har bir xujayrada 100-10000 mitoxondriylar bor. Mitoxondrial genomning polimorfizm darajasi yadro genomiga nisbatan ancha yuqori (5-10 marta), intronlar saqlamaydi. 2000 yillardan boshlab mitoxondrial gen bilan turlarni aniqlash va ajratishni isbotlashga oid ko'pgina ishlar chop etildi. Asosiysi tadqiqotchilar uchun qulayligi, lekin markerning etarli darajada sifatliligidir. Shuning uchun-ki SO1 genning fragmentlari faqatgina turlarni aniqlashda (hayvonlarda) foydalanish mumkin, bu borada ko'plab ishlar bajarildi.

Hayvonlarning turli guruhlariga mansub 13000 oshiq juftlikdagi turlarida CO1 geni fragmentlari bilan taqoslangan [Hebert, 2003a] bo'lib, turli xil tur organizmlari 2% kamroq farq qiladi, bitta tur organizm uchun esa 1% oshmaydi [Hebert, 2003b]. Tadqiq qilinayotgan hayvonlarning bu ketma-ketlikning ichki va turlar o'rtasidagi farqlanish (divergentsiya) darajasi 5-20 martaga farq qildi. Ko'pgina tadqiqot ishlarda CO1 genlari fragmentlari bilan to'g'ri identifikasiya qilingan guruhlari 96-100% tashkil qildi.

Xebert va uning xammualiflari 2004 yilda CO1 geni fragmentlari asosida DNK-shtrixkodning samarasini isbot qilish bo'yicha 4ta ish chop etishdi. Ular turli guruh hayvonlarda bajarilgan, kapalaklarda (Hebert, 2004a], qushlarda [Hebert, 2004b], o'rgimchaklarda [Barrett, Hebert, 2004] va oyoqdumlilarda [Hogg, Hebert, 2004]. Mualliflar o'zlarining ma'lumotlari va hamda genbank bazasi ma'lumotlaridan foydalanishdi. Odatda, Kimuraning ikkiparametrli modulidagi masofalarni hisobga olgan holda ketma-ketlikning farqini topishdi [Ney, Kimura, 2004] va ichki va tur o'rtasidagi variabellikni taqqoslashdi. Ayrim holatlarda samarali taksonomik identifikasiya qilinganlariga ba'ho berildi, buning uchun o'rganilgan bitta turning ketma-ketliklari olindi, daraxt qilindi (yaqin qo'shnilar usuli), keyin navbat bilan boshqa individlarning ketma-ketliklari qo'shildi va bu turlar klaster qilindi va tekshirildi.

2004 yili Shimoliy Amerikaning qushlari bo'yicha ish e'lon qilindi [Hebert, 2004b], bunda ilgari morfologik aniqlangan, o'rnatilgan DNK-shtrixkod yordamida turlar o'rtasidagi tegishlilik tekshirib ko'rildi. CO1-ketma-ketligi bo'yicha turlar o'rtasidagi farq, ichki turlarga qaraganda 19-24 marta ko'p (tegishli 7,05-7,93%, qarama-qarshi 0,27-0,43%) ekanligi aniqlandi va ma'lumotlarga ba'ho berildi.

Kanada Artikasidan oyoqdumlilarning (Sollembola turkumi) 13 avlodiga mansub 19 turi o'rganildi (har bir vakilidan 1-3tadan). Bitta avlodga mansub bo'lgan turlar o'rtasidagi farqlar 8-19 % tashkil etdi-ki, bu holda bitta turning idividlari o'rtasidagi farqlar esa ko'pincha 1 % kam bo'ldi. Bu ishda uchratilgan ikkitasidagi farqlanish (divergentsiya) istisno tariqasida (5 i 13%), mualliflar bunga bir-biriga o'xshagan "egizak" turlarning hali aniqlanmagan dalili deb hisobladilar.

Natijada Xebertni “shtrixkodning otasi” deb atay boshladilar [Marshall, 2005] va uni hammualliflari shu xulosaga kelishdi, DNK-ShK hali tavsifi berilmagan turlar va yangi turlarni identifikatsiya qilish yaroqlidir, bu to’lig’icha isbot qilindi. Bunda CO1- fragmenti bo'yicha ichki va turlar o'rtasidagi farq 10 martagacha farq qilishi (10xSST - species-screening threshold) taklif etildi yoki turlar ketma-ketligi o'rtasidagi farq taxminan 2-3 %, turlarni aniqlash chegarasidir [Hebert, 2004b]. Ikkinchi kriteriy o'zaro (retsiproknoy) monofil bo'lish, jumladan ketma-ketlikni o'rnini to'ldirib bo'lmaslikdir.

### **Nazorat savollari:**

1. Genosistematika nimani o'rganadi?
2. Filogenetika nimani o'rganadi?
3. DNK-shtrixkodni tushuntirib bering?
4. Turlarini identifikatsiyalashda qanday molekulyar markerlar ishlataladi?
5. Mitochondrial genlar (DNK-barkoding) va yadro genlarini tushuntirib bering?

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Hebert P. D. N., Gregory T. R. The promise of DNA barcoding for taxonomy// Syst. Biol. - 2005. -V. 54. -P. 852-859.
2. Hebert P. D. N., Penton E. H., Burns J. M., Janzen D. H., Hallwachs W. Ten species in one: DNA barcoding reveals cryptic species in the neotropical skipper butterfly *Astrapes fulgerator*// Proc. Natl. Acad. Sci. USA. - 2004. - V.101. -P. 14812-14817.
3. Kuchboev A.E., Krucken J., Ruziev B.H., von Samson-Himmelstjerna G. Molecular phylogeny and diagnosis of species of the family Protostrongylidae from caprine hosts in Uzbekistan// Parasitology Research 2015, 114 (4). - P 1355-1364.

### **3-mavzu: HAYVONLAR MOLEKULYaR SISTEMATIKASINI O'RGANISHDA DUNYoDA VA O'ZBEKISTONDA BO'YICHA OLIB BORILAYOTGAN TADQIQOTLAR**

#### **REJA:**

Ko'p xujayrali umurtqasiz hayvonlarning zamonaviy sistematikasi va filogenetikasi. Umurtqasiz hayvonlar molekulyar taksonomiyasi bo'yicha O'zbekistonda olib borilayotgan tadqiqotlar.

#### **Umurtqasiz hayvonlar molekulyar sistematikasi va taksonomiyasi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar**

Strongilidlar (Nematoda) parazit nematoda guruhlari orasida evolyutsion holati jihatdan yaxshi samarali hisoblanadi. Ularning keng ko'lamdag'i xilma-xilligi XX asrda tadqiqotchilarning bu nematodalarni Strongylida Railliet et Henry,

1913 otryadiga ajratishga olib keldi. Ularning erkin yashovchi nematodalar – rabditidalar bilan ko’p jihatlarining morfologik o’xshashligi anchadan beri ma’lum edi. Nematodalar sistematikasida molekulyar metodlarning keng qo’llanishi strongilidlarning statusi masalasini tikladi, chunki ribosomal ketma-ketlikning tahlili natijalariga ko’ra strongilidlar rabditidlarning bir yo’nalishi ekanligini ko’rsatadi. Strongilidlarning tuproqdagagi Heterorhabditidae (Poinar, 1975) oilasi entomopatogen nematodalar bilan muayyan filogenetik bog’liqligi aniqlangan.

Strongilidlarning qarindoshlik aloqalari to’g’risidagi tasavvurlar Blaxter M.L. va De Ley (2002) taklif qilgan nematodalar sinfi sistemasida o’z aksini topgan (rasmlar). Bu sistemada strongilid (darajasi) (Rhabditida Chitwood, 1933 otryadi tarkibidagi Strongyloidea Weinland, 1858) katta oila darajasiga tushiriladi. Strongilid tarkibidagi katta oilalar oila darajasiga tushirildi: Strongylidae Baird, 1853; Trichostrongylidae Leiper, 1912; Metastrongylidae Leiper, 1908 va Ancylostomatidae Looss, 1905. Shu bilan birga bu katta oilaga Heterorhabditidae Poinar, 1975 oilasi mualliflar tomonidan kiritilgan. Strongilidlar darajasining bunday o’zgarishlari kladistik va an’anaviy yondoshuvlar o’rtasidagi o’zarो kelishilib, ular Trichostrongylidae oilasining “ichki” taksonomik strukturasini o’zgartirmagan.


### Klassifikatsiya evolyutsiyaning tizimi

Геккель (1894) Три царства	Уиттекер (1969) Пять царств	Вёзе (1977) Шесть царств	Вёзе (1990) Три домена	Кавалье-Смит (1998) Два домена и семь царств
Животные	Животные	Животные		Животные
Растения	Грибы	Грибы	Эукариоты	Грибы
	Растения	Растения	Эукариоты	Растения
Протисты	Протисты	Протисты		Хромисты
	Монеры	Археи		Простейшие
		Бактерии	Прокариоты	Археи
		Бактерии		Бактерии

### Molekulyar sistematikani o’rganishda dunyoda va O’zbekistonda olib borilayotgan tadqiqotlar

Strongilidlar parazit nematoda guruhlari orasida evolyutsion holati jihatdan yaxshi samarali hisoblanadi. Ularning keng ko’lamdagi xilma-xilligi XX asrda tadqiqotchilarning bu nematodalarni Strongylida Railliet et Henry, 1913 otryadiga

ajratishga olib keldi. Ularning erkin yashovchi nematodalar – rabditidalar bilan ko’p jihatlarining morfologik o’xshashligi anchadan beri ma’lum edi. Nematodalar sistematikasida molekulyar metodlarning keng qo’llanishi strongilidlarning statusi masalasini tikladi, chunki ribosomal ketma-ketlikning tahlili natijalariga ko’ra strongilidlar rabditidlarning bir yo’nalishi ekanligini ko’rsatadi (Aleshin et al., 1998; Blaxter et al., 1998; Sudhaus, Fitch, 2001). Strongilidlarning tuproqdagagi Heterorhabditidae (Poinar, 1975) oilasi entomopatogen nematodalar bilan muayyan filogenetik bog’liqligi aniqlangan.



Расм. Нуклеотидларнинг SSU асосидаги Нематода синфининг филогенетия гипотезаси.

Strongilidlarning qarindoshlik aloqalari to’g’risidagi tasavvurlar P.De Ley va M.Blakster (Blaxter, De Ley, 2002) taklif qilgan nematodalar sinfi sistemasida o’z aksini topgan. Bu sistemada strongilid (darajasi) (Rhabditida Chitwood, 1933 otryadi tarkibidagi Strongyloidea Weinland, 1858) katta oila darajasiga tushiriladi. Strongilid tarkibidagi katta oilalar oila darajasiga tushirildi: Strongylidae Baird, 1853; Trichostrongylidae Leiper, 1912; Metastrongylidae Leiper, 1908 va Ancylostomatidae Looss, 1905. Shu bilan birga bu katta oilaga Heterorhabditidae Poinar, 1975 oilasi mualliflar tomonidan kiritilgan. Strongilidlar darajasining bunday o’zgarishlari kladistik va an’anaviy yondoshuvlar o’rtasidagi o’zar o’zgartirmagan.

**Parazitlar molekulyar sistematikasi bo'yicha O'zbekistonda olib borilayotgan tadqiqotlar.** O'zR FA Zoologiya instituti Molekulyar biologiya va biotexnologiya laboratoriyasida turli guruh hayvonlar parazit gelmintlar va quruqlik mollyuskalari tur tarkibi, molekulyar taksonomiyasi, filogeniyasi va sistematikasini o'rganish muammolari bilan shug'ullanadi. Shu jumladan, tuyoqli hayvonlar nematodalarining morfologiyasi, molekulyar diagnostikasi va ularning sonini nazorat qilish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazilmoqda. Hozirda *Metastrongylus*, *Dictyocaulus*, *Protostrongylus*, *Spiculocaulus* va *Cystocaulus* avlodlarining 9 turi va *Haemonchus*, *Ostertagia*, *Marshallagia*, *Telodorsagia* va *Setaria* avlodlarining 18 turi bo'yicha 50 ortiq ribosomal DNKsi ITS va 28S cohasing nukleotiddar ketma-ketligi tahlil qilindi. Aniqlangan nematodalar ichidan 15ta turi halqaro Genbank (NCBI) bazasiga joylashtirildi va u uchun yangi

hisoblandi (Abramatov et al., 2013; Kuchboev et al., 2015; Amirov i dr., 2014, Amirov va boshq., 2015).

Bioinformatik tahlil qilingan ITS sohasining nukleotidlar ketma-ketligi asosida o'pka nematodalarini tezkor aniqlash maqsadida turlarga xos bo'lgan alel praymerlar yaratildi. Bu ixtiro uchun O'zR intelektual mulk agentligiga patentlash uchun talabnoma berildi. Bu kelajakda veterinariya amaliyotida parazit nematodalarning molekulyar diagnostikasi uchun PZR tizimida foydalanish mumkin bo'ladi.

Undan tashqari qo'y va qora mollarda parazitlik qiluvchi va shu vaqtgacha olimlar o'rtasida keskin munozaraga baxsga sababchi bo'lgan gemonx nematodasining ikkita turi ustida molekulyar- genetik tadqiqot o'tkazildi. Bu usul yordamida gemonx turlarni risbosomal DNKSining ITS-2 o'rganildi va tahlil qilindi. Natijada bu turlarning alohida- alohida tur ekanligini tasdiqlash imkonini berdi (Kuchboev i dr., 2012, Abramov et al., 2013). Olingan nukleotidlar ketma-ketligi Genbank bazasiga joylashtirildi (NCBI).

Protostongilid nematodasi turlari uchun turga xos bo'lgan praymerlar yaratildi va ixtiroga Patent olingan (2017).

Laboratoriya fan doktori, fan nomzodi, uchta kichik ilmiy xodimlar faoliyat yuritadi va uchta amaliyot xonalari: molekulyar biologiya, laminar boks, avtoklaf va tsentrifuga xonalari hamda ilmiy xodimlar uchun mo'ljallangan ikkita xonada ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi.

Laboratoriya ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish uchun kerak bo'lgan barcha zamonaviy asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta'minlangan.

### **Nazorat savollari:**

1. Qaysi hayvonot olami guruhlari uchun molekulyar sistematika yaratilgan?
2. O'zbekistonda hayvonlar molekulyar diagnostikasi va sistematikasi bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

### **Asosiy adabiyotlar:**

3. Aleshin V.V., Kidrova O.S., Milyutina I.A. et al. Relationships among nematodes based on the analysis of 18S rRNA gene sequences: Molecular evidence for monophyly of Chromadorian and Secernentean nematodes // Russ. J. Nematol. 1998a. Vol. 6, N 2. P. 175-184.
4. Blaxter M. *Caenorhabditis elegans* is a nematode // Science. 1998. Vol. 282. P. 2041-2046.
5. Blaxter M.L., De Ley P., Garey J.R., Scheldeman P., Vierstraete A., Vanfleteren J.R., Mackey L.Y., Dorris M., Frisse L.M., Vida J.T., Thomas W.K. A molecular evolutionary framework for the phylum Nematoda // Nature. 1998. - Vol. 392. - P. 71-75.
6. Kuchboev A.E., Krucken J., Ruziev B.H., von Samson-Himmelstjerna G. Molecular phylogeny and diagnosis of species of the family Protostrongylidae from caprine hosts in Uzbekistan// Parasitology Research 2015, 114 (4). - P 1355-1364.

**4-mavzu: MOLEKULYaR-GENETIK TAHLILLAR UChUN ZOOLOGIK  
NAMUNALARINI YIG'ISH TALABLARI. NAMUNALARDA MORFOLOGIK  
VA TAKSONOMIK TADQIQOTLAR**  
**(4 soat)**

**REJA:**

Zoologik ob'ektlardan invaziv va neinvaziv genetik namunalarini yig'ish. Namunalarni dala va laboratoriya sharotida saqlash talablari. Namunalarni molekulyar tadqiqotlar uchun yaroqliligi. Yig'ilgan namunalarda morfologik va taksonomik tadqiqotlar o'tkazish.

**4.1. Molekulyar-genetik tahlillarda zoologik namunalarni  
yig'ish talablari**

**Zoologiya kuzatuv ob'ekti** – ko'p hujayrali (Animalia) va bir hujayrali organizmlar (protistlar hisoblanadi). Molekulyar- genetik tahlil uchun namuna sifatida kuzatilayotgan umurtqasiz hayvon hajmiga qarab butun organizmlar (o'lchami kamida 1 sm), tana qismlari, to'qima va ichki organlar bo'laklari xizmat qilishi mumkin. Maqbul namuna o'lchami - 5 mm x 2-3 mm, og'irligi 0.1 dan 5 g gacha. Molekulyar- genetik tahlil uchun zarur bo'lgan materiallarni to'plash jarayonida kerakli namuna DNK molekulasiini destruktiv o'zgarishini oldini olish maqsadida 70°С li chuqur muzlatuv holatiga tushirilishi yoki, 70% li etanol eritmasida ( $S_2N_5ON$ ) belgilab qo'yilmog'i zarur. Tutish jarayonidan keyin organizm nobud bo'lsa, namunani qayd qilish, 20-30 daqiqa mobaynida amalga oshirilishi zarur. Tekshirilayotgan hayvon namunalarni formaldegid eritmasi bilan qayd qilinishi, yaroqsiz hisoblanadi, chunki quyidagi bu modda DNKga jiddiy tasir ko'rsatadi, tanazulni olib keladi va taxlil natijalarini qisman yoki to'liq buzilishiga sabab bo'ladi. 70% li etanol eritmasida qayd qilingan namunalarni muzlatgichda saqlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi, agar bunday sharoit bo'lmasa, xona haroritida quyosh nuri tushmaydigan joyda saqlanishi tavsiya qilinadi. Saqlash uchun 1-2 ml probirkalardan (eppendorflar) foydalanyladi.

**4.2. Неинвазивный генетический забор проб**

- Введен в 1992 г. как метод получения генетических образцов от бурых медведей в Европе
- 3 лучших цели использования: идентификация вида, половая идентификация и идентификация отдельных особей
- Низкие показатели успешности, проблемы контаминации (загрязнения проб) и высокий уровень ошибок микросателлитного генотипирования - это проблемы, которые следует учитывать
- Интеграция в область исследований дикой природы становится все более осуществимой

- Качественная оценка генетических паттернов = понимание популяционных процессов
- Наличие множества объектов и маркеров
- Меньшие усилия при более низких затратах, чем при отлове животных
- Большее количество получаемых образцов по сравнению с инвазивными методами
- Хороший подход для изучения редких и скрытных видов
  
- Может сгенерировать больше данных, чем метод использования фотоловушек
- Идентификация отдельных особей
- Идентификация пола
- Мигранты, социальная структура
- Более точные оценки численности
- Дополняет другие методы
- Увеличивает возможности по изучению местообитаний, перемещений
- Используется для изучения редких животных

### **Преимущества**

- Увеличивает кол-во определенных животных
- Предоставляет данные для многочисленных проектов
- Множественные схемы забора проб
- Доступность

### **Недостатки:**

- Контроль количества и качества ДНК
- Риск экстраполяции результатов
- Может не дать данные для будущего анализа
- Требует полевое и лабораторное обучение

- Обнаружение редких видов
    - Образцы шерсти или фекалий
    - Случайно собранные данные
    - Помогает зафиксировать наличие вида
  - Помогает различать виды
- Примеры:
- По образцу шерсти обнаружили медведя гризли (против 1 особи на более, чем 5304 ловушке-ночей!)
  - Манул и кабан, идентифицированные по экскрементам, но не замеченные на фото-ловушках в горах Тянь-Шаня в Кыргызстане

### **Методология обнаружения экскрементов**

Цель: получить достаточное количество образцов для оценки размера популяции

1. Определите площадь исследования для оценки времени обследования
2. Разбейте территорию на блоки обследования по частям / всему ареалу
3. Проведите трансектные обследования - длина зависит от качества среды обитания, рельефа местности, количества присутствующих экскрементов
4. Соберите экскременты, запишите географические координаты, отправьте в лабораторию

### **Правила обработки образца**

- Малое количество и низкое качество ДНК, которая извлекается из образцов фекалий, чрезвычайно сложно использовать в генетическом анализе.
  - \* Избегайте контаминации при заборе!
  - \* Используйте хороший лабораторный метод
  - \* Проверка на соответствие и гарантия качества
- Используйте перчатки и стерильные инструменты
- Избегайте смешения образцов, которые могут быть от 2х особей
- Ищите свежие образцы, но старые тоже можно использовать

### **Правила отбора проб в поле**

- Подготовьте новую пробирку для забора пробы
- Определите GPS локацию
- Заполните форму с данными
- Наденьте новые перчатки
- Отломите (срежьте) кусочек с внешней части фекалий и положите в пробирку с силикагелем
  - Не сжимайте фекалии
  - Простерилизуйте приборы
  - Утилизируйте перчатки
  - Храните пробирки в темном, сухом месте



Расм. Намуналар йигишиң қоидалари

**Неправильный забор материала!**




### **Правила в лаборатории**

- Необходимо иметь специально выделенные места для работ до- и после- выделения ДНК для предотвращения контаминации
- Очистка рабочего места после взятия образца на всех этапах
- График лабораторных работ для предотвращения порчи продуктов

### **Намуналарда морфологик ва таксономик тадқиқотлар**


#### **Морфологик аниқлаш**

Трихостронгилийдларнинг бир-бирига ўхшаш турли  
хил тухумлари




## Морфология аниклаш

Трихостронгилларнинг бир-бирига ўхшаш турли  
хил тухумлари



Личинки первой стадии *Protostomylus* sp. (400×):  
а – головной конец, б – пищеводно-кишечный переход, в – нервное кольцо,  
г – экскреторное отверстие, д – кишечник, е – половой зачаток, ж – анус,  
з – хвост



Личинки третьей стадии  
*Protostomylidae* sp., извлеченные из ноги моллюска (400×):  
а – головной конец, б – хвостовой конец,  
в-г – хитинизированные бороздки на головной и хвостовой частях личинки, д – панцирь.

## **Nazorat savollari:**

1. Molekulr-genetik tahlillari uchun zoologik materillar yig'ishga nimalarga e'tibor qaratiladi?
2. Namunalarda olishda genetik neinvaziv usuli deganda nimani tushunasiz?
3. Dala sharoitida fekaliylardan namunalar olish.

## **5 - mavzu. ZOOLOGIK OB'EKTLARDAN GENOM DNKSINI AJRATISH**

### **REJA:**

Zoologik namunasidan genom DNKSini ajratish Standart fenol-xloroform va kommertsiyali reagent to'plamlari yordamida. Fenol – xloroformli uslubi, Diatom DNA Prep (Rossiya) reagentlari to'plami yordamida DNK ajratish uslubi va Dneasy Tissue Kit (Germaniya) reagentlar to'plami yordamida DNK ajratish uslubining usunlik va kamchiliklari.

**Tayanch iboralar:** *nematodalar, eppendorf probirkalari, kontaminatsiya, gel-elektroforez, UF-nuri, TAE, agarzoza, bromli etidiy, DNK tozalash to'plami, DNK-markeri.*

### **Standart fenol-xloroform va kommertsiyali reagent to'plamlari yordamida umurtqasizlar namunasidan genom DNKSini ajratish**


DNK va RNK ajratishni ta'minlashda bir qator prioritet talablarni ajratish mumkin:

- biologik materialni lizisi (Lúzis - rastvorenie kletok i ix sistem, v tom chisle mikroorganizmov, pod vliyaniem razlichno'x agentov, naprimer fermentov, bakteriolizinov, bakteriofagov, antibiotikov);
- selektiv ekstraktsiya (sorbsiya) (Sorbsiya (ot lat. sorbeo – poglohayu (shimmok))-poglohenie tvyordo'm telom libo jidkostyu razlichno'x vehestv iz okrujajuhey sredo') ili (posledovatelnoe udalenie primesey iz ekstratsii);
- katta xajmda to'plash;
- PZR susaytiruvchi komponentlardan ajratish;
- DNK va RNK ajratish;
- yuqori foizda chiqishi;
- kalibrovka mumkinligi va ijobjiy nazorat;
- kontaminatsiyaning yo'qligi;
- kam vaqt sarflanishi;
- avtomatizatsiyaning mumkinligi.

Eukariot organizmlardan nuklein kislotalarni ajratish va fraktsiyalashda traditsion va kommersion tayyor reagent-to'plam usullari (naborda ishning bajarilishi keltirilgan) foydalaniladi.

Masalan, genom DNKsi hayvonlarning o'pka va oshqozon-ichak tizimida endoparazitlik qilib yashovchi nematodalar to'qimalaridan ajratiladi. Oldindan 96%li etil spirtga solingan nematodalar soat oynasida distillangan suv bilan yaxshilab yuviladi va har birini alohida 100 mkl lizis bufferi solingan eppendorf

probirkasiga solinadi. Yirik nematodalardan (diktiokaullar, gemonxlar, parabronemalar) DNKsini ajratishda, ularning bosh qismi ishlatilgani ma’qul (tanani bosh qismidan qizilo’ngach tugagan joyigacha) va bu binokulyar lupasi ostida, ko’z skalpeli yoki britvani lezviyasi yordamida kesib olinadi (erkak nematodalarning dum tomoni esa morfologik taxlili uchun qoldiriladi) (1-rasm).



07.09.2013 09:41

1- rasm. DNK ajratish uchun nematod tanasidan preparat taylorash.

### **2.2.1. Fenol – xloroformli uslubi (FX- uslub).**

Bu – nuklein kislotalarni ajratishning klassik uslubidir. Bu uslub proteinaza K ishtirokida detergentlar (yuvuvchi vosita) tomonidan biologik materialarning parchalanishi hamda fenol va xloroform yordamida nuklein kislotalarni ajratib olishni o’z ichiga oladi (2-rasm). Buning afzalligi shundaki, Diatom DNA Prep (Rossiya) va Dneasy Tissue Kit (Germaniya) reagentlar to’plamiga qaraganda bu uslub bilan anchagina ko’p miqdorda DNK ajratib olinadi. Uslubning kamchiliklariga esa uning davomiyligi, mashaqqatliligi, agressiv organik erituvchilarining ishlatilishi va DNKnii oqsildan ham, RNKdan ham etarli darajada tozalamasligini kiritish mumkin.



2-rasm. DNK ekskstratsiyasi uchun Fenol-Xloroform reagenti.

Nematoda to’qimalaridan nuklein kislotalarni FX – ektraktsiya qilish usuli quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Nematoda tanasidan 0,05 g og’irlikdagi to’qimani bo’lakchasi olinadi.
2. Nematodalarning to’qimalari, tarkibida 40 mM tris – HCl (pH q8,0), 0,5 mM EDTA, 1<sup>x</sup>SSC bo’lgan bufer eritmasida (to’qima va buferning 100 mkg; 500 mkg nisbatida) gomogenizatsiya qilinadi.

3. 0,5% gacha SDS va proteinaza K ni oxirgi kontsentratsiyasi 1 mgG'ml bo'lguncha qo'shiladi, aralashtiriladi va 37°S haroratda 2-3 soat davomida inkubatsiya qilinadi yoki 18 soatga qoldiriladi.

4. Probirkaga 5 M natriy atsetat oxirgi kontsentratsiyasi 0,1 M bo'lgunga qadar qo'shiladi va aralashtiriladi. So'ngra 1:1 nisbatda fenol, to'yingan HCl trisi (pHq8,0) qo'shib, 10-15 daqiqa davomida aralashtiriladi.

5. Xloroformni 1:1 nisbatdagi hajmda qo'shib, yana 5-10 daqiqa mobaynida aralashtiriladi.

6. Olingan aralashmani 4°S haroratda 20 daqiqa tsentrifuga qilinadi (bir daqiqa davomida 4000 aylanma tezlikda).

7. Yuqoridagi fraktsiyani erigan DNK bilan (supernatant) pipetka yordamida tortib olinadi.

8. FXli oqsildan ajratish jarayoni (deproteinazatsiya) undan butunlay xolos bo'lgunga qadar takrorlanadi.

9. Ajratib olingan supernatantga 2:1 nisbatdagi xajmda xloroform qo'shib, 10-15 daqiqa aralashtiriladi, so'ngra 15 daqiqa tsentrifuga qilinib (bir daqiqa davomida 4000 aylanma tezlikda) yuqorgi fazasi olinadi.

10. 1 ml li erigan DNKga 5 M natriy atsetat oxirgi kontsentratsiyasi 0,2 M bo'lguncha qo'shib, aralashtiriladi.

11. Ikki hajmdagi 96% li etanol eritmasi qo'shib, DNK cho'kmaga tushgunga qadar bir maromda aralashtiriladi.

12. -20°S xaroratda bir sutka davomida Sovutiladi, so'ngra 15 daqiqa davomida 15000 aylanma tezlikda tsentrifuga qilinadi (0°S gacha Sovuguncha).

13. Supernatant olib tashlanadi, DNK cho'kmasi 70% li etanol eritmasida yuviladi.

14. Etanol eritmasi to'kib tashlanadi, DNK havoda etanol eritmasi uchib ketgun qadar quritiladi va ionsizlantirilgan suvda eritiladi.

Olingan DNK preparatlarini kontsentratsiyasi spektrofotometrda aniqlanadi. Ajratilgan DNK kontsentratsiyasi 2,0 – 2,3 mkgG'mkl tashkil qiladi.

### **2.2.2. Diatom DNA Prep (Rossiya) reagentlari to'plami yordamida DNK ajratish uslubi**

Bu uslub reagentlar yoki kitlar yordamida nukleotidlarni ekstraktsiya qilish uslublaridan biri hisoblanadi. Bu to'plam DNKn turli tabiiy materiallardan ajratish, shuningdek klinik namunalardan DNKn tez tozalab olish imkonini beradi. Bu usul FX – uslubdan jadalligi (1 ta namunaga 30 min. – 1,5 vaqt sarflanadi), toksik (zaharli) reagentlarning ishlatilmasligi bilan ajralib turadi. Ta'sir qilish maxanizimi guanidintotsionatli (Trizol) lizis qiluvchi reagentning ishlatilishiga asoslangan bo'lib, u hujayrani lizisiga, hujayra solyubilizatsiyasiga, shuningdek hujayra nukleazali denaturatsiyaga olib keladi. Lizis qiluvchi (parchalovchi) – reagent ishtirokida DNK Nucleos<sup>TM</sup> – sorbent to'plamida faol so'rildi, so'ngra spirtli eritmada oqsil va tuzlardan oson yuviladi. Sorbentdan ajratilgan DNKn PZR da ishlatish mumkin.

**To'plamni tarkibi:** parchalovchi reagent, tuzli bufer Nucleos sorbentining suspenziyasi, "Ekstra Gen" ion almashinuvchi arlashma suspenziyasi (3-rasm).

3 rasm. *Diatom DNA Prep 200* to'plami.

Diatom DNA Prep 200 reagentlar to'plami yordamida nematodalarning to'qimalaridan DNKnii ajratib olish uslubi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

buferni ishchi  
2. 1,5 ml  
tanasidan 0,05 g  
bo'lakchasi  
(nematodaning  
chunki dum  
jihatdan  
muhim



parchalovchi reagent bilan maydalaniadi va qo'l yordamida 5-10 marta aralashtiriladi.

3. Aralashma 5-7 daqiqa 65° S haroratli termostatga qo'yiladi.

4. Probirkadagi aralashma minutiga 5000 aylG'min tezligida 10 sekund davomida tsentrifuga qilinadi.

5. Supernatant toza probirkaga olinadi, unga oldindan gomogenizatsiyalangan Nucleos suspenziyasi 20-40 mkl miqdorda qo'shiladi.

6. Probirkani rotator yordamida 10–20 aylG'min yoki qo'l yordamida aralashtirish kerak, so'ng 5000 aylG'min tezligida 10 sek. tsentrifuga qilinadi va supernatant olib tashlanadi.

7. Cho'kmaga 400 mkl parchalovchi reagent solinib, vorteks bilan gomogen holatga kelgunga qadar jadal aralashtiriladi.

8. Aralashmaga tuzli buferning 1 ml ishchi eritmasi qo'shilib, 5-10 marta aralashtiriladi, 5000 aylG'min. tezligida 10 sek tsentrifuga qilinadi, so'ngra supernatant olib tashlanadi.

9. 7 – bosqich qayta takrorlanadi.

10. Cho'kma 65°S haroratda 4-5 daqiqa davomida quritiladi.

11. Shu probirkaning o'ziga "Ekstra Gen" suspenziyasi 50-100 mkl miqdorda quyiladi va gomogen xolatga kelguncha aralashtiriladi, so'ngra 65°S haroratdada 5 daqiqa davomida termostatga qo'yiladi va yana aralashtiriladi.

12. So'ngra 1 min mobaynida 10000 aylG'min. tezligida tsetrifugalanadi.

13. Supernatant toza probirkaga olinadi, -20°S haroratda saqlanadi.

Ajratib olingan DNK kontsentratsiyasi 0,12-0,17 mkgG'mkl ni tashkil qiladi.

"Tez" FX – uslubidan ajratib olingan DNK ni ko'p holatlarda oqsil va

1. Qo'llanmaga binoan eritmasi tayyorlanadi.  
probirkaga nematoda og'irlikdagi to'qima kesilib solinadi bosh qismi olingani ma'qul, qismi turlarni morfologik identifikatsiya qilishda ahamiyatga ega) va 800 mkl

uglevod qoldiqlaridan tozalash kerak. Buni esa Diatom reagentlar to'plamidagi Nucleos suspenziyasi yordamida, uslubning 5 - bosqichidan boshlab tozalash mumkin.

### **2.2.3. Dneasy Tissue Kit (Germaniya) reagentlar to'plami yordamida DNK ajratish uslubi**

Dneasy Tissue Kit (QIAGEN GmbH, Germany) reagentlar to'plami afzalligi jinsiy voyaga etgan nematodalarning 10 mg to'qimasidan tashqari, juda kichik o'lchamdagisi nematodalarning lichinkasi yoki tuxumidan genom DNKsini ajratish olish mumkin (4-rasm). Bunda nematoda to'qimasining kichik bo'lagi ajratib olinadi yoki pipetka bilan 1-2 dona lichinka yoki tuxumi olinadi va 1,5 ml li "Ependorf" probirkasiga solinadi. Namunalar og'irligi 10 mg dan oshmasligi kerak.

1. Biologik materialga 180 mkl ATL buferi solinadi.
2. 20 mkl proteinaza K qo'shiladi va vorteksda 15 sek davomida aralashtiriladi. Probirkalar termostatda 55°С haroratda biologik materialning to'liq parchalanishiga qadar inkubatsiya qilinadi. Namunalarni 1-3 soatga yoki kechasiga 18 soatga qoldirish mumkin.
3. 15 sek davomida vorteks qilinadi, keyin 200 AL buferi qo'shib, 15 sek vorteksda aralashtiriladi, 70°С haroratda 10 minut inkubatsiya qilinadi.
4. So'ngra 200 mkl etanol (96-100% li) qo'shib, vorteksda gomogen eritma hosil bo'lguncha aralashtiriladi.
5. Har bir gomogen ehtiyyotkorlik bilan (Dneasy Mini spin column) filtrli epindorf probirkalarga solinib, qopqoqlari berkitilib 1 minut davomida 8000 aylG'min tezlikda tsentrafuga qilinadi.
6. Epindorfga o'tgan toza suyuqlikni 2 ml li probirkalarga o'tkazilib, ustiga 500 mkl AW1 solinib 1 minut davomida 8000 aylG'min tezlikda tsentrifuga qilinadi.
7. Toza suyuqlikni 2 ml li filtrli probirkalarga o'tkazilib, ustiga 500 mkl AW2 bufer solinib filtrdan suyuqlik to'liq ajralguncha 14 000 aylG'min tezlikda 3 minut davomida tsentrifuga qilinadi.
8. Filtrli epindorfni boshqa 1,5 ml li yoki 2 ml li probirkalarga o'tkaziladi va ustiga 50-100 mkl AE bufer yoki distillangan suv solinadi, so'ngra xona xaroratida 2 minut inkubatsiya qilinadi va 8000 aylG'min tezlikda 1 minut tsentrifuga qilinadi. Buferda erigan DNK -20°С haroratda saqlanadi.
9. Elyuat olish jarayonini 8 - bosqichga ko'ra takrorlash mumkin.

### **1.2.4. HiPurA™ Insect DNA Purification DNK ajratish uslubi**

Bu to'plam xasharotlar, bo'g'imoyoqlilar, yumaloq va yassi chuvalchanglar va x.k. tsentrifugallash orqali genom DNK ajratishda qo'l keladi. Hasharotlar odatda suyuq azot bilan maydalandi va proteinaza K bilan lizis qilinadi. Lizisdan so'ng bog'langan DNK HiElute Miniprep (Capped) slikagelli spin kolonka orqali toza holda olinadi. Ikki marta tuz va oqsil qoldiqlari yuviladi va DNK elyutsiya qilinadi. Odatda 50 mg to'qimadan 5-15 mkg DNK olinadi.


- To'qimani eritish:** Eppendorfdagi namunaga 180 mkl Lysis Solution (AL) va 20 mkl protenaza K (20mgG/ml) solinadi. Yaxshilab vorteksda aralashtirib 55<sup>0</sup>S da inkubatsiya qilinadi. To'qima yaxshilab eriguncha 1-3 soatga yoki kechasiga qoldirish mumkin. Eslatma: Agar DNK qoldig'i ahamiyatsiz bo'lsa, keyingi etapga o'tish mumkin.
- Lysis reaktsiyasi:** Namuna ustiga solamiz 200 mkl lizis bufferini (S1, Lysis Solution) 15 sekund yaxshilab vorteks qilinadi. Keyin 70<sup>0</sup>S da 15 minut inkubatsiya qilinadi (suqli vannada).
- Lizisni HiShredder™ o'tkazish:** Lizisni HiShredder™ (DSCA01 – qizil rangli) spin kolonkaga o'tkazib (2 ml probirkaga) va 2 min. 14.000 ob. min. tsentrifuga qilinadi.
- 3chi bosqichdagi sizib o'tgan fraktsiyani yangi 2 ml li probirkaga o'tkaziladi (devordagi musorlarga tegib ketmasdan).
- Lizisga 200mkl etanol (96-100%) qo'shiladi va qo'lida 5-10 sekund yaxshilab aralashtiriladi.
- Lizisni HiElute Miniprep kolonkaga o'tkazish:** Lizisni HiElute Miniprep spin kolonkaga (DSCA02 - ko'k rangli) o'tkaziladi va 10 000 obg'min 1 minutga tsentrifuga qilinadi, 1 min laboratoriya xaroratida ushlanadi. Pastki qismi to'kib tashlanadi va spin kolonkani 2 ml li probirkaga ko'chiriladi.
- Yuvish:** Probirkaga (spin kolonkali) 500 mkl yuvuvchi buffer (Wash solution) qo'shiladi va 10 000 obg'min 1 minutga tsentrifuga qilinadi. Pastki qismi to'kiladi va spin kolonka boshqa probirkaga ko'chiriladi.
- Unga yana 500 mkl yuvish suyuqligi (Wash sotution) qo'shiladi va 13 000 obg'min 3 minutga tsentrifuga qilinadi. Pastga oqib o'tgan qismi to'kib tashlandi.
- DNK Elyutsiya:** Spin kolonkaga 100 (50) mkl Elyutsiya buferi (ET) (DS0040) solinadi va 10 000 obg'min tsentrifuga qilinadi, xona xaroratida 1min turadi.
- Elyutatni (DNK) kissqa (2-8<sup>0</sup> S) yoki uzoq (-20<sup>0</sup> S) muddat saqlashga xolodilnikga qo'yiladi.

### **MagPurix 12s yordamida nuklein kislotalarni ajratib olish**

Bundan tashqari, hozirgi vaqtida nuklein kislotalarni avtomatik ravishda ajratib olish uchun bir necha priborlar ishlab chiqarilgan. **MagPurix 12s** – bu Zinexts (Tayvan) kompaniyasida ishlab chiqarilgan bo'lib, nuklein kislotalar (NK) avtomatik ravishda ajratadigan ish stoli kompakt robot tizimi (4-rasm).(<http://G'G'www.skygen.comG'zinextsG>).

MagPurix 12s yordamida NK ajratib olish uchun 3ta qadam kifoya:

- Namunalar solinadi, reagentlar solingan kartrij va usukunaga ishlatiladigan materiallar.
- Shtirix kod skaneri yordamida protokol qilindi va «Start» knopkasi bosiladi. Tizim avtomatik ravishda NK ajrata boshlaydi.
- Avtomatik ravishda yig'ilgan pribirkadagi NK uskunadan olish.



4-rasm. MagPurix 12s tizimi yordamida NK avtomatik ravishda ajratib olish bosqichlari. NK ajratib olishda moddalarni ajratishda magnit shariklari yordamiga asoslangan.

### Nazorat savollari:

4. DNK va RNK ajratishni ta'minlashda qanday asosiy talablar qo'yiladi?
5. DNK ekstratsiya uchun qanday detergentlardan foydalaniladi va uning yo'rqnomasini?
6. "Fenol i xloroform" uslubi afzaligi va kamchiliginini tushuntiring?
7. Diatom DNA Prep reagentlari to'plamining afzaligi va kamchiliginini ayting?
8. Sorbtsiya usulidan foydalanishda nuklein kislotalarning ajratish va tozalashdagi asosiy bosqichlari qanday?
9. Qaysi maqsadlarda tuzli bufer ishlataladi?
10. MagPurix 12s yordamida nuklein kislotalarni ajratib olish qanday amalga oshiriladi?
11. Ajratilgan genom DNKhining kontsentratsiyasi kaysi asbobda o'lchalanadi?

### Асосий адабиёт

1. Sambrook, J. Molecular cloning: A laboratory manual. 2nd ed / J. Sambrook, E.F. Fritsch, T. Maniatis. - Cold Spring Harbor: Cold Spring Harbor Laboratory Press, 2001. - 1626 p.

### Кўшимча адабиёт

1. Кучбоев А.Э., Амиров О.О., Каримова Р.Р. Полимеразали занжирили реакцияда ишлатиш учун ҳайвонларнинг ўпка ва ичак нематодалари тўқималаридан ДНК ажратиш усуллари // Зооветеринария. - Тошкент,

## **6-Mavzu: POLIMERAZA ZANJIRLI REKTsIYa (PZR) USLUBINING ASOSIY TUSHUNChASI. PZR – AMPLIFIKA TsIYa**

### **REJA**

Polimeraza zanjirli reaktsiya (PZR) uslubini asosiy tushunchasi. PZR uchun kerakli yadro va mitoxondrial markerlarini tanlash. PZR-amplifikatsiya o'tqazish. PZR rejimi.

**Tayanch iboralar:** *nematodalar, Eppendorf probirkulari, kontaminatsiya, Gel-elektroforeз, UF-nuri, TAE, agarzoza, bromli etidiy, DNK tozalash to'plami, DNK-markeri.*

### **PZR-amplifikatsiya uslubining asosiy tushunchasi**

Polimeraza zanjir reaktsiya (PZR) - *in vitro* amplifikatsiya metodi bo'lib, uning yordamida qisqa vaqt mobaynida muayyan sondagi DNK ketma-ketligini odatdagidan 1000 marotaba ko'proq tanlash yoki ko'paytirish mumkin (Mullis, Falloona, 1987; Sambrook, 2001). Metod mohiyati – probirkada muayyan DNK qismlarini qaytalanuvchi temperatura tsikllarida ko'p marotabali ko'chirish (amplifikatsiya). Amplifikatsiyaning har bir tsiklida yuqorida sintezlangan fragmentlar yana DNK-polimeraza fermenti yordamida ko'chiriladi va DNK fragmentlari o'ziga xos ko'p marotaba kattalashadi (Boldo'reva, 2005).

PZR qo'llanalish sohasi: genom ketma-ketligini yuqori darajali klonlash (Scharf et al., 1986), mitoxondriya va genom DNK larini to'g'ri sekvenerlash (Wong et al., 1987), nukleotid ketma-ketligi o'zgaruvchanligini tahlilash va kasallik qo'zg'atuvchilarni aniqlash (Kwok et al., 1987).

Polimera zanjir reaktsiyasini o'tkazish uchun reaktsion aralashmada turli xil tarkiblar bo'lishi zarur (Saiki i dr., 1990):

*Ikta praymer* – su'niy yo'l bilan sintezlangan.

Praymerning nukleotidlari ketma-ketligiga bo'lgan talablar:

1. Ichki ikkilamchi tuzilishning bo'lmasligi;
2. Nukleotidlari tarkibining muvozanatlangan bo'lishi GG'Ts, AG'T va hamma ketma-ketlik bo'yicha to'g'ri taqsimlanganligi;
3. Dimer praymerlar bo'lmasligi uchun, 3'chi oxiri orasida komplementarlikni bo'lmasligi.

Praymerlarning optimal kontsentratsiyasi 0.1-0.5 mkM. Praymerlarning yuqori kontsetratsiyasi o'ziga xos bo'limgan qizdirishga yoki o'zigi xos bo'limgan PZR-amplifikatsiya mahsulotlari yig'ilishiga olib kelishi mumkin.

*DNK-polimeraza termostabilligi* (Taq-polimeraza). DNK-polimerazaning umumiyl xususiyati shundaki, 5'x3' yo'naliishida nuklein kislotalarning matritsiyalangan sintezini olib borishi. Ko'pchilik DNK-polimerazalar xatolik orqali qo'shilgan nukteotidlarni olib tashlash uchun mo'ljallangan 3'x5' ekzonukleazali faollikga ega bo'ladi. Odatda reaktsiya o'tkazish uchun 0.5-.0.25 birlikda termostabil polimerazaning *Thermus aquaticus* o'zi kifoya.

*2'-dezoksinukleozid-5'-trifosfat aralashmasi* (dNGF - dATF, dGTF, dTsTF i dTTF) - Taq-polimeraza yordamida ikkinchi DNK zanjiri sintezi uchun foydalilaniladi. Nostabillingan dOTF aralashma DNK polimeraza ishi aniqligini kamaytiradi. dNGF baland kontsentratsiyasi  $Mg^2Q$ , ionlari kontsentratsiyasini kamaytiradi va DNK polimeraza faolligini pasaytiradi.

*Bufer* – ma'lum kontsentratsiyadagi kation va anionlar aralashmasi bo'lib, reaktsiya uchun optimal sharoit yaratadi: stabil rN va eritmaning ion kuchi.

*Tahlil qilinayotgan namuna* – reaktsiya aralashmasiga kiritish uchun tayyorlangan preparat bo'lib, PZR-amplifikatsiyasi uchun nishon hisoblangan DNKnii o'zida saqlaydi.

*$Mg^2Q$  ioni* - Taq-polimeraza ishi uchun kerakli. Ishchi kontsentratsiyalar diapazoni: 0,5-5,0 mM (10 mM - DNK-polimerazani 40-50% ga susaytiradi  $Mg^2Q$  kontsentratsiyasining oshishi polimera zanjir reaksiyasining o'ziga xosligiga va samaradorligiga kuchli tasir ko'rsatadi: PZR- maxsulotlar chiqishini ko'paytiradi, lekin praymerlar gibrildanishi xosligi susayadi.  $Mg^2Q$  optimal kontsentratsiyasi DNK- matriksasi va praymerlari nukleotid ketma-ketligiga bog'liq.  $Mg^2Q$  dNTF bilan kompleks hosil qiladi, aynan shu koplekslar Taq-polimeraza uchun substrat xisoblanadi.  $Mg^2Q$  kontsentratsiyasi ko'tarilishi DNK erish temperaturasini ko'tarilishiga va praymerlar gibrildanishi aniqligini pasayishiga olib keladi.

*Tsiklik temperatura rejimi* - PZR- amplifikatsiyasida tahlil qilinayotgan DNKdagi qator hodisalar bo'lib muayan temperatura parametrлari taminlanadi. Har bir amplifikatsiya tsikli 3ta bosqichdan iborat (Ro'bchin, 2002):

1. *Denaturatsiya*. Reaktsion aralashmani  $95^\circ S$  gacha qizdiriladi, buning natijasida ikki zanjirli DNK molekulasi echilib ketadi (ajralib) va ikkita bir zanjirli molekula hosil qiladi.

2. *Yumshatish (praymerlarning qo'shilishi, gibrildanishi)*. Praymerlar bir zanjirli DNKga qo'shiladi. Ko'zlangan spetsifik soha chegarasidagi qarama-qarshi DNK zanjirlariga mos keladigan ketma-ketlikka to'g'ri va qarama-qarshi praymerlar komplementar bo'lib qo'shiladi. Har bir juft praymer uchun o'zining yumshatish temperaturasi mavjud bo'lib, u  $50-65^\circ S$  oraliqda bo'ladi. Yumshatish vaqt 20-60 sek.

3. *Elongatsiya (DNK sintezi)*. DNK zanjirining qarama-qarshi yo'nalishda 5'chi oxirdan 3'chi oxirga komplementar qurib bitirilishi. DNKnинг yangi zanjirlari sintezi uchun 2'- dezoksinukleozid-5'-trifosfat eritmasi material bo'lib xizmat qiladi. Bu bosqichda reaktsion aralashmadagi temperaturani optimum darajasiga olib chiqiladi ( $72^\circ S$ ). Elogatsiya davom etish vaqt apmlifikatsiya qilinayotgan DNK fragmentining uchunligi yoki DNK-polimeraza fermentining ishlash tezligi bilan belgilanadi. Elongatsiya vaqt odatda quyidagi formula yordamida aniqlanadi: T (elongatsiya) q 1 daqiqa x N (m.j.n. DNK).

Apmlifikatsiyaning temperatura tsikli ko'p marotaba qaytariladi (25 va undan ko'p). Har bir tsiklda sintezlanayotgan DNK fragmentlari ikki marotaba ko'payadi. Tsiklik jarayon natijasi DNK fragmentlarining o'ziga xos eksponentsiyal ko'payishidir.

*Tugallanayotgan qurilish*. Odatda PZR- amplifikatsiyasi oxirgi tsiklidan

so'ng qisman sintezlangan PZR mahsulotlarini tugallash uchun reaktsion aralashmani qo'shimcha ravishda 5-15 daqiqa mobaynida 72°S da inkubatsiya qilinadi (Saiki i dr., 1990).

"*Issiq start*" ("hot-start") – PZR amplifikatsiyasi reaktsiyasidagi nospetsefik mahsulotlarni hosil bo'lishini oldini olish uchun yondashuv hisoblanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, probirkada praymerlarni spetsifik yumshatish uchun kerakli sharoit bo'limgunga qadar reaktsiyani boshlanmasligi (Helkunov, 2004).

GTs tarkibi va o'lchamiga qarab, praymerlar muayyan erish temperaturasiga egadirlar. Agar sistema temperaturasi erish temperaturasidan baland bo'lsa, praymer DNK zanjirida saqlanib qolish xususiyatini yo'qotadi va denaturatsiyaga uchraydi. Optimal sharoit ushlanib turilsa, ya'ni erish temperaturasi yumshatish temperaturasiga yaqin bo'lsa, praymer ikki zanjirli molekula hosil qiladi. "*Issiq startni*" amalga oshirish yo'llaridan biri birlamchi denaturatsiya vaqtida termotsikler chuqurchasiga (lunka) probirkani kiritish (Saiki i dr., 1990).

Bu holatda, agar nospetsefik yumshatish temperatura tsikllanishiga qadar bo'lgan bo'lsa elongatsiya sodir bo'lmaydi, agar komplekslar qizdirilsa DNK-praymer denaturatsiyaga uchraydi, shuning uchun nospetsifik mahsulotlar hosil bo'lmaydi. Keyinchalik, probirkadagi temperatura erish temperaturasiga nisbanat pasayadi va bu spetsefik amplifikatsiya mahsulotlari hosil bo'lishiga olib keladi (Helkunov, 2004).

*Ijobiy nazorat*- reaktsion aralashma tarkibiga kiruvchi hamma komponentlar reaktsiyani normal o'tishini ta'minlanishiga ishonch hosil qilishga yordam beradi. Buning uchun yumshatish uchun praymerlardan iborat DNK preparatlaridan foydalaniladi: masalan, kerakli organizm DNK si yoki genomning spetsefik klonlangan qismi.

*Kontaminatsiya* – reaktsion aralashmaga tashqaridan amplifikatsiya reaktsiyalari uchun nishon bo'lib xizmat qiladigan va sohta ijobjiy, salbiy natijalarni beradigan DNK molekulasini tushib qolishi.

*Salbiy nazorat* tajribaning xar bir seriyasida kontaminatsiyani yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun foydalaniladi. Salbiy nazorat sifatida bidistillirlangan suvdan foydalanish tavsiya qilinadi.

Reaktsion aralashmadagi begona DNKnii yo'qotish uchun reaktsion aralashmali (DNK matritsasi yo'q) probirkani ultrabinafsha nurlanishga 10 daqiqa mobaynida duchor qilinadi.

Reaktsion aralashmadagi begona matritsalarning manbai sifatida bo'lishi mumkin:

- Laboratoriya uskunalari va pipetkalarda qolgan DNK qoldiqlari orqali;
- Namunalar orasidagi qarama-qarshi kontaminatsiya;
- Oldingi PZR maxsulotlari.

Kontaminatsiyani oldini olish va soxta salbiy natijalarni oldini olish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilmoq zarur:

- PZR uchun tayyorlanayotgan matritsa, PZRni to'g'ridan-to'g'ri o'tkazayotgan va PZR ni tahlil qilayotgan ish o'rinalarini taqsimlang.

- PZR uchun aralashmani ultrabinafsha lampali laminarlangan shkafda yoki izolyatsiyalangan boksda aralashtiring. PZR uchun ishlatiladigan

mikrotsentrifugani, qo'lqoplarni va boshqa uskunalarni ham shu erda saqlang.

• Faqat PZR uchun ishlataladigan pipetkalarni maxsus g'ovakli filtri bor qopqoqchalarni ishlating.

• PZR ni o'tkazayotganda faqat steril materiallar va yangi perchatkalardan foydalaning.

## **PZR uchun kerakli yadro va mitoxondrial markerlarini tanlash**

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqgan holda ma'lum bo'ldiki, tadqiqotchilarining hamma talablarga javob beradigan yagona marker tanlash mumkin emas. Turlarni to'g'ri aniqlash va ajratish, tur ichidagi va populyatsiyalar ichidagi polimorfizm darajasini aniqlash hamda filogenetik daraxtlar tuzish uchun bir necha markerlardan foydalangan holda amalga oshirildi. Misol uchun simpatirik turlarni ajratish uchun, ya'ni turlar o'rtasida chatishish bor yo'qligini isbotlash uchun yadro va mitoxondrial markerlar foydalanish orqali amalga oshiriladi. Biroq, ideal marker talabini tuzish mumkin [Cruickshank, 2002].

1. U genomda bitta nuxsada bo'lishi kerak. Agarda ko'pnusxali genlardan foydalanilganda, nuxsalar nukleotidlari ketma-ketligidan farq qilishi mumkin, hammasidan yomoni, bo'linish va qo'shimchalarni bo'lishi (rRNK kodlovchi ichki trankskrib bo'lмаган speyser genlari), PZR mahsulotlarini vektorda "klonirovanie" ishlarini qilish va keyinchalik bir necha bakterial klonlardan qo'yilgan plazmidalarni sekvenirlash, bu eskirgan keng tahlillarni qilib bo'lmasligiga yoki ko'p xarajatlilikga olib keladi [Patwardhan, 2014].

2. Shunday qilib, keyingi tahlillar uchun qabul qilingan markerlar sifatidagi gen ketma-ketligi, boshqa organizmlarning shu genini ketma-ketligi bilan tekislash protsedurasidan o'tish kerak, tekislash oson amalga oshirilishi kerak. Bu shuni bildiradiki, tahlil qilinadigan ketma-ketlik uzunligi bo'yicha katta farq qilmasligi, qo'shish va bo'linishlar ko'p bo'lmasligi lozim. Biroq, ayrim hollarda ko'riliyotgan sohani tekislash qiyin bo'lishi yoki ikkilamchi tizimdagini qiyoslash (tRNK), bunday ketma-ketliklarni ishlatish mumkin bo'ladi [Kjer, 1995].

3. Ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotni olish uchun almashtirish soni optimal bo'lish kerak. Agar genni evolyutsiyalanishi tez bo'lsa, bu gomoplaziyaga olib keladi, bu olinadigan ma'lumotlarni ishonchliligin pasaytiradi. Boshqa tomondan, konservativ sohaning (masalan, rRNK kodlovchi) yaqin ketma-ketligini taqqoslashda (yoki yaqinda ajralgan turlar) bu genetik tahlil bilan ularning ajratib bo'lmaydi [Patwardhan, 2014].

4. Fragmentlarni amplifikatsiya qilishda ishlataladigan praymerlar genning kontservativ sohasiga mos bo'lishi, chunki o'rganilayotgan sistematik jihatdan uzoq bo'lgan organizmlarni fragmentlarini amplifikatsiya qilish mumkin bo'ladi. Biroq, ular nihoyatda "universal" bo'lmasligi kerak, teskari holatda genomning boshqa sohalarini o'ziga xos bo'lмаган amplifikatsiyaga olib keladi [Yli-Mattila, 2000].

Quyida keng tarqalgan yadro va mitoxondrila markerlar ko'rib chiqiladi.

**Ribosomal RNK (rRNK) kodlovchi yadro genlari**

Ribosomal genlar o'zining universalligi va yuqori kontservativ va variabel domenlarini bo'lishi bilan markerlar ichida eng yaxshilari hisoblanib, nisbatan uzoq guruhlarni ham filogenetik aloqalarini o'rganishda foylaniladi [Patwardhan, 2014]. Hamma organizmlarda ribosomalar asosan ikki subbirliklarda, kichik (18S – eukariotlarda va 16S – qolgan hammasida) va katta. Bakteriyalar va arxeobakteriyalarda katta subbirlikning ikki variantda: 5S, 5,8S va 25SG'28S. rRNKnинг ichki tizimi katta va kichik subbirliklari, tegishli 10 va 8 variabel sohalarni hosil qiladi. rRNK oqsilkodlovchi genlarga nisbatan kamroq evolyutsiyalaydi [Schmidt, 2007].

**16S rRNK** – foydalanilgan markerlar ichida birinchilaridan biridir. Birinchi bo'lib, PZR va sekvenirlash davridan oldin, 1960 yillarda Dubnau va hammualiflari 16SRNK ketma-ketligi tahlili uchun *Bacillus Cohn*, 1872 avlodni turlarida qo'llashdi [Dubnau, 1965]. Biroq, Vozaning [Woese, 1987] klassik ishlaridan keyin, bu gen bakteriyalar taksonomiyasida qo'llanila boshladi. Bu genning ketma-ketligi uzunligi 1550 j.n. iborat bo'lib, turli guruh bakteriyalar uchun oligonukleotid "imzolari" xususiyatga ega bo'lib, ham variabel va ham kontservativ sohalarni tashkil etadi [Clarridge, 2004]. Hozirgi vaqtida sekvenirlashni yangi avlodlari qo'llagan holda metagenom tadqiqotlardan foylalanmoqda (odatda 4-5-4 sekvenirlash, bunda o'qish katta uzunlikda bo'ladi).

**5S rRNK** – 120ta nukleotidli ko'pgina organizmlarning ribosomalarida qantashuvchi yuqori konservativ ketma-ketlik bo'lib, ayrim qo'ziqorinlar, ayrim hayvonlar va ko'pchilik protistlardan tashqari, o'simliklarning filogeniyasini tuzishda foydalaniladi [Szymanski et al., 2002]. Biroq, qisqa razmerda bo'lganligi uchun, ishonchlilik va aniqligi tegishli ishlarda ancha past.

**28S rRNK** – uzunligi 1000 nukleotiddan oshiq. Uning ketma-ketligi ko'pgina ko'pxujayrali hayvonlarda aniqlangan. Uning ikkilamchi tuzilishini taqqoslash va shu taqqoslash asosida filogeniyasini qurish – filogenetik tahlillar uchun asosiy instrumentdir. Ayrim hollarda bu genning to'liq razmeri emas, uni fragmentlari foydalaniladi (400 nukleotidga yaqin S2-S3 sohalari) [Schmidt, 2007].

**18S rRNK** – bu genning to'liq razmeri 1800 nukleotidga yaqin bo'lib, filogenetik daraxtlarda keng qo'llaniladi, ayrim hollada esa turni identifikatsiya va ajaratishda ishlatiladi. Qolaversa, variabel sohasining bo'lishi bilan u gen yaqin turlarni ajrata olmasligi mumkin, umuman olganda ketma-ketlik etarlicha kontservativ. Keyingi vaqtarda filogenetik analizlar uchun 18S, hamda 28S rRNK gennlari ishlatilmoqda. rRNK 18S geni ko'pincha infuzoriylar va boshqa sodda hayvonlar turlarini aniqlash maqsadida metagenom tahlilida qo'llanilmoqda.

Shunga qaramasdan, ribosomal genlar shak shubhasiz ko'pkopiyali, qoidadan holi sifatida ulardan faqat birkopiyali genlar markerlari sifatida ko'rsatishadi. Ularning foydalanishi mumkin uning yuqori konservativ tufaylidir, genning hamma nusxalari bir xil. Xromasomada, genlar, rRNK kodlovchi genlar oralig'ini takil qiluvchi ichki transkrib speyseri deyiladi (Internal transcribed spacer, ITS).

**ITS** – kodlanmaydigan ketma-ketlik, shuning uchun ularda ribosomal va oqsilkodlovchi genlarga nisbatan polimorfizm nihoyatda yuqori. Ularning praymerlari universal va har qanday taksonomik guruhlar tegishli fragmentlarini amplifikatsiya qilishda foydalanish mumkin [Persson, 2000], masalan, suv o'tlari, yuqori o'simliklar va umurtqasiz hayvonlar, undan tashqari, qo'ziqorinlar uchun ham ishlab chiqilgan, qaysiki molekulyar shtrixkod sifatida qo'llanilmoqda.

Shu o'xshash universal praymerlar bog'liqligi, ularning ketma-ketligi rRNK kodlovchi tegishli 28, 18 ili 5,8 konservativ ketma-ketliklari genlariga mos keladi. Bu markerlarni kamchiligi, bиринчи navbatda, bir necha ketma-ketliklarni tekislashni qiyinligi, chunki, ularning uzunligi turli turlarda sezilarli darajada farq qiladi, yo'qotish va qo'yilishlar bo'lishi mumkin. Shu sababli har doim ham ulardan foydalanila olmaslik mumkin, masalan turarni ajratishda, chunki ITS va rRNK kodlovchi genlari ko'pnushali, lekin ribosomal genlardan farqi, bitta organizm bir necha nushada ITS bo'lishi, uzunligi va yo'qotish va qo'yilishga ega bo'lishi bilan farqlanadi [Jousson, 2001]. Biroq, bu hamma organizmlarda ham odir bo'lmasi mumkin, ko'p hollarda bu markerdan yaqin turlarni ajratishda foydalanish mumkin bo'ladi.

### Mitoxondrial genlar

BLAST algoritmlari yordamida, nukleotid ketma-ketligi turli xil organizmlar genomi malumotlari bazasida tahlil o'tkazish mumkin: umurtqalilar (odam, sichqon, makaka va boshqalar), umurtqasizlar (drozofila, *Caenorhabditis elegans* va boshqalar), o'simliklar (arabidopsis, makkajo'xori va boshqalar), zamburug'lar (aspargill) va viruslarda.

**BLAST ishlash printsipi.** BLAST seriyasidagi dasturlar ma'lum qismlardagi ketma-ketlikni solishtirish uchun mahalliy to'g'irlash olib boradi. Nukleotid yoki aminokislolar keima-ketligi BLAST serveriga kelgandan so'ng, BLAST xamma qismlar (oqsillar uchun bu 3 aminokislordan iborat ketma-ketlik qismi, nuklein kislolar 11 nukleotidlardan iborat) va o'xshash qismlar jadvalini tuzadi. Keyin malumotlar bazasida qidiruv amalga oshiriladi va gomologlar topilganda ularning o'lcham qismlari uzaytiriladi (4 va undan ortiq aminokislota, 12 va undan ortiq nukleotidlар) avval oraliqsiz, keyin orliqlardan foydalanilgan xolda. Xamma mumkin bo'lgan o'lcham qismlari uzaytirilgandan so'ng, malumotlar bazasidagi yanada gomologik ketma- ketlik juft to'g'irlanadi va olingan malumot SeqAlign strukturasida qayd qilinadi.

O'rganilayotgan ketma-ketlik va BLAST malumotlar bazasidagi ketma-ketlik o'xshashligi darajasi va axamiyatini aniqlash maqsadida Max ident (maksimal o'xshashlik), Query coverage (so'rov qamrovi maydoni) va E qiymat (expected value, E-value) (kutilgan qiymat) dan foydalaniladi.

### **Blastn dasturi yordamida ko'p marotabalik to'g'irlashni o'tkazish**

1. BLAST dasturi saxifasiga kiring:  
<http://www.ncbi.nlm.nih.gov/blast/Blast.cgi>.

BLAST asosiy sahifasi ochilishida tepe qismda 4 ta ilovali asosiy menuy bor:

- Home – uy sahifasigi qaytish uchun ilova.
- Recent Results – 36 soat ichida qilingan qidiruv natijalarini ochish uchun ilova.
- Saved Strategies – sizning shaxsiy saxifangizda «My NCBI» qidiruv natijasidan so’ng saqlangan ilova.
- Help - BLAST dasturida xujjatlar bilan ishlash uchun katalogga o’tish ilovasi.

2. Asosiy menyuda Basic Blast grafasidagi «nucleotide Blast» dasturini tanglang.

3. Ketma-ketlikni kiritish oynasiga FASTA formatida Enter Query Sequence kriting. Namuna natijasida 18S rRNK qismi nukleotid ketma-ketligini tanlaymiz.

4. Choose Search Set → Others → Nucleotide collection (nrG’nt) parametrini tanglang.

5. Program Selection grafasida somewhat similar sequences izlash algoritmini tanlang.

6. BLAST tugmasini bosing.

O’tkazilgan tahlilga binoan, foydalanilayotgan 18S rRNK geni ketma-ketligi asosidagi tahlil natijalariga ko’ra bu *Pseudonapaeus sogdiana* (gen 18S rRNK, KU760758) deb identifikasiya qilish mumkin, lekin 98 % o’xshashlik asosida (maksimal identifikasiya -98 %, so’rovni amalga oshirish oblasti – 90%, E value - 0.0)


The screenshot shows the NCBI BLAST homepage. At the top, there are links for "NIH", "U.S. National Library of Medicine", and "NCBI National Center for Biotechnology Information". On the right, there are links for "abdurakhim", "My NCBI", "Sign Out", and "Recent Results", "Saved Strategies", and "Help". Below the header, there's a search bar with the placeholder "BLAST finds regions of similarity between biological sequences. more...". A message encourages users to "Try SmartBLAST for an improved protein-protein search". The main content area is divided into sections: "BLAST Assembled Genomes" (with a search bar for organism names), "Basic BLAST" (listing programs like nucleotide blast, protein blast, blastx, tblastn, and tblastx), and "Specialized BLAST" (listing programs like SmartBLAST). To the right, there are "Your Recent Results", "News" (mentioning Whole Genome Shotgun sequences), and "Tip of the Day" (encouraging users to see the genomic context).

## BLAST asosiy oynasi.

The screenshot shows the NCBI Nucleotide BLAST search interface. At the top, there are links for "Home", "Recent Results", "Saved Strategies", and "Help". Below the header, there's a search bar with the placeholder "Enter Query Sequence". The main form includes fields for "From" and "To", a "Job Title" input, and a checkbox for "Align two or more sequences". Under "Choose Search Set", there are sections for "Database" (Human genomic + transcript, Mouse genomic + transcript, Others (nr etc.)), "Limit by Organism" (Organism, BioProjectID, WGS Project), "Exclude" (Exclude), "Limit to" (Exclude), and "Entrez Query" (Enter an Entrez query to limit search). At the bottom, there's a "Program Selection" section with options for "Optimize for" (Highly similar sequences (megablast), More dissimilar sequences (discontiguous megablast), Somewhat similar sequences (blastn)) and "Choose a BLAST algorithm". The status bar at the bottom shows the URL as "blast.ncbi.nlm.nih.gov/Blast.cgi?PROGRAM=blastn&PAGE\_TYPE=BlastSearch&LINK\_LOC=blasthome".

7 rasm. Nukleotidlardan ketma-ketligi tahlili BLAST oynasi.

Quyida 8, 9 i 10 rasmlarda natijalar tahlili keltirilgan.



8 rasm. BLAST dasturi ishi grafik natijalari

Descriptions							
Sequences producing significant alignments:							
Select: All None Selected							
Alignments	Download	GenBank	Graphics	Distance tree of results	Max score	Total score	Query cover
<a href="#">Auriculinella bidentata</a> isolate PR0650 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					737	737	90%
<a href="#">Auriculastra subula</a> isolate PR1651 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					737	737	90%
<a href="#">Arion silvestris</a> 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					737	737	90%
<a href="#">Acusta despecta</a> sieboldiana 18S ribosomal RNA gene, complete sequence					737	737	90%
<a href="#">Bivalvata</a> 18S rRNA gene					737	737	90%
<a href="#">Derceras reticulatum</a> 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					732	732	90%
<a href="#">Cylindrotis quadris</a> isolate PR2223 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					730	730	90%
<a href="#">Zospeum suarezi</a> isolate PR1842 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					730	730	89%
<a href="#">Laemodonta bella</a> isolate PR0652 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					726	726	90%
<a href="#">Microtilla occidentalis</a> isolate PR1780 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					726	726	90%
<a href="#">Myosotella myosotis</a> isolate PR1759 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					723	723	90%
<a href="#">Pythia scarabaeus</a> isolate PR0626 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					721	721	90%
<a href="#">Laemodonta cubensis</a> isolate PR1750 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					721	721	90%
<a href="#">A. sinicus</a> small subunit ribosomal RNA gene					721	721	90%
<a href="#">Cepaea nemoralis</a> 18S rRNA gene					719	719	90%
<a href="#">Cassidula aurifelis</a> isolate PR1927 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					717	717	90%
<a href="#">Allochroa pfeifferi</a> isolate PR1394 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					717	717	89%
<a href="#">Discus rotundatus</a> voucher EED-Phy-607 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					717	717	90%
<a href="#">Oxylioma</a> sp. 18S rRNA gene					717	717	90%
<a href="#">Onchidiella borealis</a> isolate PR0737 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					715	715	90%
<a href="#">Auriculinella bidentata</a> isolate PR2057 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					715	715	87%
<a href="#">Ellodium chinense</a> isolate PR2221 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					715	715	90%
<a href="#">Blaniulus quinquecinctus</a> isolate PR2725 18S ribosomal RNA gene, partial sequence					715	715	90%

Ris. 9. BLAST dasturi matn shaklidagi natijalari

**Auriculinella bidentata isolate PR0650 18S ribosomal RNA gene, partial sequence**  
Sequence ID: gbkKM280971\_1 Length: 1850 Number of Matches: 1

**Auriculastra subula isolate PR1651 18S ribosomal RNA gene, partial sequence**  
Sequence ID: gbkKM280971\_1 Length: 1852 Number of Matches: 1

Range 1: 1429 to 1850 Range 1: 1430 to 1851

Score Expect Identities Gaps Strand  
737 bits(399) 0.0 416/424(98%) 2/424(0%) Plus/Plus

Range 1: 1429 to 1850 Range 1: 1430 to 1851

Score Expect Identities Gaps Strand  
737 bits(399) 0.0 416/424(98%) 2/424(0%) Plus/Plus

## 10 rasm. O'rganilayotgan nukleotidlar ketma ketligi va malumotlar bazasidagi ketma-ketlikning juft to'g'irlanishi.

Taqoslanayotgan ketma-ketlikning to'liqsiz gomologiyasi ham natija bo'lishi mumkin: 1) GeneBank deponirovat qilingan ketma-ketliklar xato bo'lishi mumkin (Sbjct); 2) tur ichidagi o'zgaruvchanlik.

### Nazorat savollari:

1. Senjer usuli asosidagi sekvenirlashda qanday printsip yotadi?
2. Sekvenirlash o'tkazishda zanjirning uzishda qanday komponentlar kerak?
3. PZR-amplifikatsiyasi assimetrik reaktsiyasida fragmentlarni tozalashni tushuntiring?
4. Blastn programmasi yordamida ko'plab to'g'rashlar qanday o'tkaziladi?
5. BLAST yordamida birlamchi nukleotidlar ketma-ketligini qanday tahlil qilinadi?
6. BLAST bilash ishlashni printsiplarini ko'rsating?

### Асосий адабиётлар

Sambrook, J. Molecular cloning: A laboratory manual. 2<sup>nd</sup> ed / J. Sambrook, E.F. Fritsch, T. Maniatis. - Cold Spring Harbor: Cold Spring Harbor Laboratory Press, 2001. - 1626 p.

### Кўшимча адабиётлар

1. Altschul S.F. Basic Local Alignment Search Tool / S.F. Altschul, W. Gish, W. Miller, E.W. Myers, D.J. Lipman // J Mol Biol. - 1990. - V.215. - P.403-410.
2. Altschul S.F. Gapped BLAST and PSI-BLAST: a new generation of protein database search programs / S.F. Altschul, T.L. Madden, A.A. Schaffer, J. Zhang, Z. Zhang, W. Miller, D.J. Lipman // Nucleic Acids Res. - 1997. - V.25. -3389-3402.
3. Alphey, L. DNA sequencing from experimental methods to bioinformatics / L. Alphey. - Berlin etc.: BIOS sci. publ., 1997. - 224 p.
4. Inoue, H. Enhanced separation of DNA sequencing products by capillary electrophoresis using a stepwise of electric field strength / H. Inoue, M. Tsunako, Y. Baba // Chromotogr. - 1998. - V.802. - P.179-184.
5. Lario, A. Automated laser-induced fluorescence DNA sequencing / A. Lario, A. González, G. Dorado // Anal. Biochem. - 1997. - V.247. - P.30-33.
6. Watts, D. Automated fluorescent DNA sequencing on the ABI PRISM 310 Genetic Analyzer / D. Watts, J.R. MacBeath // Methods Mol. Biol. - 2001. - V.167. - P.153-170.

## **11- mavzu. FILOGENETIK DARAXTNI TUZISH. NUKLEOTIDLAR KETMA-KETLIGINI GENBANK (NCBI) BAZASIGA JOYLASHTIRISH. DNK – DIAGNOSTIKA (PTsR USULI)**

### **REJA:**

Tahlil uchun olingan ketma-ketliklarni tuzish. Clustal Omega dasturi yordamida nukleotidlardan ketma-ketligini ko'p marotabali to'g'irlash. Filogenetik daraxtni tuzish MEGA dasturidan foydalanish (Ko'proq haqiqatga o'xshashlik usuli (maximal likelihood), maksimal iqtisod (maximal parsimony), chamlab ko'rilib o'rtacha juftlik (UPGMA) va yaqin qo'shnilar (Neighbor-joining)dasturlari orqali tekshirish). Olingan nukleotidlardan ketma-ketligini halqaro Genbank (NCBI) joylashtirish. Hayvonlar parazitlarni ekspress-tashxis usuli (PTsR texnologiyasi)

**Tayanch iboralar:** Molekulyar filogenetika, filogenetik daraxt, fasta format, MEGA-7, Genbank.

**Kladistika** (qadimgi yunonchada kládos - tarmoq) – filogenetik sistematikaning yo'nalishidir. Kladistik amaliyotning o'ziga xos jihatni kladistik tahlil (taksonlar o'rtasidagi qarindoshlik aloqalarni rekonstruksiya qilishda argumentatsiyaning qat'iy sxemasi), monofiliyani tushunish va loyihalashtirilgan filogeniya bilan ierarxik klassifikatsiya o'rtasidagi bir xil o'xshashlikni talab qilish hisoblanadi.

**Kladistik taxlil** esa hozirgi paytda qabul qilingan biologik klassifikatsiyaning asosi bo'lib, tirik organizmlar o'rtasidagi munosabatlarni hisobga oladi.

**Kladogramma esa** (inglizcha cladogram) – zamonaviy biologik sistematikadaga asosiy tushuncha – daraxtsimon graf bo'lib, taksonlar o'rtasidagi singillik munosabatlarini aks ettiradi.

Filogenetik daraxtni tuzish uchun oldin tahlil uchun kerakli ketma-ketlikni aniqlab olish so'ngra, ularni ko'p marotabali to'g'irlash zarur. Keyin, maxsus dastur yordamida daraxt tuziladi va natijalar grafik ko'rinishida ko'rsatiladi (Philippe et al., 2011).

Filogenetik daraxtni tuzish uchun FASTA formatida nukleotidlardan ketma-ketligi tuziladi.

Ketma-ketlikni tanlashda kerak bo'ladi:

- 1) Unchalik katta bo'limgan tanlamada to'xtash (< 50 ketma-ketlik)
- 2) Fragmentlarga, ksenologlarga, rekombinant ketma-ketlik, tandem qaytalanishlarga (ketma-ketliklarni qo'plab qaytalanishi) yo'l qo'ymaslik kerak.

### **Tahlil uchun olingan ketma-ketliklarni tuzish**

1. Alovida matnli faylga (Microsoft Word) filogenetik daraxt tuzish uchun xizmat qiluvchi organizmlarning (FASTA formatida), ketma-ketligini kriting.
2. Ketma-ketlikni raqamlang. Boshqa matnli faylga organizm nomlariga mos keluvchi raqamlar ketma-ketligini yozib chiqing (11-12rasm).

<b>№</b>	<b>Namunaning birlamchi nukleotidlar ketma-ketligini aniqlash</b>
№1	<a href="#">gb KF811493.1 </a> Protostrongylus rufescens isolate AK17 L3 5.8S ribosomal RNA gene and internal transcribed spacer 2, partial sequence
№2	<a href="#">gb KF811491.1 </a> Protostrongylus hobmaieri isolate AK8 5.8S ribosomal RNA gene and internal transcribed spacer 2, partial sequence
№3	<a href="#">gb KF811488.1 </a> Spiculocaulus leuckarti isolate AK14a 5.8S ribosomal RNA gene and internal transcribed spacer 2, partial sequence
№4	<a href="#">dbj AB478249.1 </a> Protostrongylus shiozawai genes for ITS2, 28S rRNA, partial sequence
№5	<a href="#">gb EU018481.1 </a> Cystocaulus ocreatus isolate 161 internal transcribed spacer 2, complete sequence; and 28S ribosomal RNA gene, partial sequence

11-rasm. Microsoft Word matnli faylida organizmlar nomlanishi.

>1\_Pf

TCGCGACTATTGTCAAACGGTACTCGTCGTCAAGCTAAAGACGTGATT  
 CCCGTTTAGTGTAGAATAATGTGATAGCAACATGTAATGATACTTATG  
 TATTATTACGCCAAATTCAATATGCTGGAATATGTCCACATGCATGCTA  
 GTGTTATCATTACTACCATCGTCGATGGATTTCAACGAGTATCGCTGG  
 AAATCATATAATGTTGAAGATTGCCGATGGACGTCGTGCTGTTCAAG  
 TAATGATAGCTGTTAACACTAGACATGAAGCGAGCTGGGTGGACATAG  
 TTTGCATATTGTTCTGCTTATTGTAACATGCAACCTGAACACTCAGATGTG  
 ATTACCCGCTGAACCTAACGATATCAT

>2\_Ph

CGCGTTGAATGCGAGTATTGCGAACCGTACTCGTCGTCAGCCT  
 AGTACGTGATTCCCGTTTAGTGTAGAATAAAATGATAGCAACATGT  
 AATGATACTTACGTATTATTACGCCAAACACAATATGCTATGTGTCCCC  
 ATGCTAGTGTATCATTACTACCATCGTCGATGTTGATTCCAATGGGT  
 ATCGCTGGAAATCATATAATGTTAAGGAATGCCGATGGATGACGTGT  
 GCTGCTCAGTAATGATAGCTATTAAACACTAGACATGAAGTGAGCTGGG  
 TGGACATAGACTGCATAATGTGCTTCTTATTGTAACATGCAACCTGAA  
 CTCAGATGTGATTACCCGCTGAACCTAACGATATCAT

>3\_S1

GGTTGCATATATGAACCGCGACTATTGCGAACCGTACTTGTGTCGTC  
 AGTCTATTGACGGACGTGGTTCCCGTTCAAGTGCAGAAGTATGTGATAG  
 CAACATGTAATGATACTTATGTATTATTACACCAAATAACATGCTAT  
 ATTGTGTTCTATGCTAGTGTATCATTACTACCATGCCGATGTTGATT  
 TTCAATGGGTATCGTTGGAAATCATATAATGTTGAAGATTGCTATTGAC  
 ACGACGTGTGCTGTTCAAGTAATGATTGCTATTGACACAAGACATGAAG  
 CAAATTGGGCATAGATTGCGACATAATGTGTTATGTATTGTAACATGC  
 AACCTGAACCTCACAGACGTGATTACCCGCTGAACCTAACGATATCAT

>4\_Psh

AGTTGCATATATGAATGCGACTATTGCAAACGGTACTCGTCGTCAGC  
 TTAGTGACGTGATTCCCGTTCAAGTATAAGAATTATGTGATAGCAACATG  
 TAATAACTTATGTATTATTACGCCAAGTACAATATGCTATACGATGC

CCCTATGCTGGTATTACATTACTACCATCGACGATGTTGATTTCAATG  
GGTATCGTTGGGAATCATATAATGTTGAAGATTGTCGATGGACGACSG  
TGTGCTGTTCACTAATGATGTCATGTTGACACTAGACATAAAGCGAGTT  
GGGCATAACAATGCGTAATGTGTTGTTCTGTAACATGCAACCTGAAC  
TCAGACGTGATTACCCGCTGAACCTAACGATATCAT

>5\_Co

TTGTCGCATATACATACTATTCATATGTATGTATTGTAAGGACGTGA  
ATGCGGCTGTCTGTCAAACGGTACTCGTCGCCGTTGCGAAACGTG  
ACGTGATTCCCCTTCAGTAAAGAATGAAGTGATAGCAACATGTAATC  
GTTGCACCGAATGCAATATGGAATCGTGTGACTGTATGCTAGTGATCAT  
TACTTACCATCGTCGATTGATTCTCAATGGGTATCATTGATGAAATC  
GCCCGACATGAAATAGTCGTCGATGGATGACGTGTGTTGCTCAGTAAT  
GATGACTATGAACACTAGCATAGTCCAAATAGATTACATATTGTATT  
TAAAATTGTACGATGCAACCTGAACCTCAGACGTGATTACCCGCTGAAC  
TAAGCATATCAT

12 rasm. Microsoft Word matnli faylida raqamli ketma-ketlik.

### ***Clustal Omega dasturi yordamida nukleotidlar ketma- ketligini aniqlab olish so'ngra ularni ko'p marotabali to'g'irlash***

***Clustal Omega*** dasturi yordamida nukleotid kislotalar va oqsillar ketma-ketligini anaqlab olish, so'ngra ularni ko'p marotabali to'g'irlashga mo'ljallangan.

Clustal Omega guruhli satr yoki on-layn tarzda ishlaydi.

1. Ko'p marotabali to'g'irlash uchun Clustal Omega sahifasiga kiring:  
<http://www.ebi.ac.uk/Tools/msa/clustalo/index.html>.
2. Clustal Omega bosh sahifasida to'rt ilovali menu bor (13 rasm):

- Step 1 (Qadam 1) – ilova ketma-ketlikda FASTA formatida Microsoft Word dokumentiga taxlil qilinayotgan nukleotidlar ketma-ketligini kirituvchi oynani o'zida saqlaydi. Grafada Enter or paste da DNA tanlaymiz.
  - Step 2 (Qadam 2) – ilova (Pairwise Alignment Options) juft to'g'irlash variantlarini o'zida saqlaydi: sekinroq (Slow) yoki tezroq (Fast). Parametrlnarni o'zgartirmaymiz (Slow);
    - Step 3 (Qadam 3) - ilova ko'plab to'g'irlash variantlarini o'zida saqlaydi (Multiple Sequence Alignment Options): kiritish formatini aniqlaymiz PHYLIP;
    - Step 4 (Qadam 4) – natijalarini eletkron manzil orqali yuborish uchun oyna (o'zingizning elektron manzilngizni grafada EMAIL ko'rsating).
- 3. To'g'rilashni ishga solish uchun SUBMIT tugmasini bosing. To'g'irlash natijalarini bir necha daqiqadan so'ng elektron manzilga yuboriladi (14-rasm).

www.ebi.ac.uk/Tools/msa/clustalo/

# Clustal Omega

[Input form](#) | [Web services](#) | [Help & Documentation](#)

[Share](#) | [Feedback](#)

Tools > Multiple Sequence Alignment > Clustal Omega

## Multiple Sequence Alignment

Clustal Omega is a new multiple sequence alignment program that uses seeded guide trees and HMM profile-profile techniques to generate alignments between **three or more** sequences. For the alignment of two sequences please instead use our [pairwise sequence alignment tools](#).

**STEP 1 - Enter your input sequences**

Enter or paste a set of DNA ▾ sequences in any supported format:

```
CCATATGCTGGTGTATTACCATACCATGACGAGTGTGATTTCATGGATCTGTTGGGAATCATATAATGTTGAAGGATCGTCGATGGACGACSGTGCTGTCAGTAATGATGTCATGTTGACACTAGACATAAAGCAGT
TGGCAGATACAATGGCTGTAACTGCAACCTGACTGAGCTGATTACCCGCTGACTCTAACATATG
>5_C_o
TTGTCGATATATACATATTCATATGTTGATGTTGATGACGCTGTAATGGCTGCTGCAACAGTGTACTCGTCGTCGCCCTTGCGAACAGTCGACGCTGATTCCTGTCAGTAAGAATGAACTGATGACATGAACTGTAAT
CGTGCACCGAATGCAATATGGAATCGTGTACTGTATGCTAGTGATCATTTACCATCGTGCATGTTGATCTCAATGGTATCTTGATGAAATGCCGCGACATGAAATGTCGATGATGACGTCGATGATGACGTCGAGT
ATGATGACTATGAACTAGCATAGTCCCCAATGATTACATATTTGATGCAACCTGAACTCGACGCTGATTACCCGCTGAACTTAAGCATATCAT
```

Or, [upload a file](#): Выберите файл Файл не выбран

**STEP 2 - Set your parameters**

OUTPUT FORMAT: Clustal with numbers ▾

The default settings will fulfill the needs of most users and, for that reason, are not visible.

[More options...](#) (Click here, if you want to view or change the default settings.)

**STEP 3 - Submit your job**

Be notified by email (Tick this box if you want to be notified by email when the results are available)

**Submit**

If you plan to use these services during a course please [contact us](#).

pavt\_2009.pdf

Все скачанные файлы

13 rasm. Nukleotidlar ketma-ketligi tahlili uchun to'g'irlash parametrlari Clustal Omega oynasi.

The screenshot shows the Clustal Omega web interface. At the top, there are tabs for Nucleotide, NCBI Blast, ClustalW2, Alignments, Help, and Clustal Omega. The main title is "Clustal Omega". Below the title, there's a navigation bar with "Input form", "Web services", and "Help & Documentation". On the right, there are "Share" and "Feedback" buttons. The URL is www.ebi.ac.uk/Tools/services/web/toolresult.ebi?jobId=clustalo-I20160419-103529-0352-32361032-oy. The page displays the results for a job titled "Results for job clustalo-I20160419-103529-0352-32361032-oy". There are tabs for "Alignments", "Result Summary", "Phylogenetic Tree", and "Submission Details". Below these are "Download Alignment File" and "Send to ClustalW2\_Phylogeny" buttons. The main content area shows the "CLUSTAL O(1.2.1) multiple sequence alignment" results. The sequences are aligned across several rows, with gaps indicated by dashes and asterisks. The sequences are labeled as follows:

- S\_C\_o
- 1\_Pf
- 2\_Ph
- 3\_S1
- 4\_P\_sh
- S\_C\_o
- 1\_Pf
- 2\_Ph
- 3\_S1
- 4\_P\_sh
- S\_C\_o
- 1\_Pf
- 2\_Ph
- 3\_S1
- 4\_P\_sh
- S\_C\_o
- 1\_Pf
- 2\_Ph
- 3\_S1
- 4\_P\_sh
- S\_C\_o
- 1\_Pf
- 2\_Ph
- 3\_S1
- 4\_P\_sh
- S\_C\_o
- 1\_Pf
- 2\_Ph
- 3\_S1
- 4\_P\_sh
- S\_C\_o
- 1\_Pf
- 2\_Ph
- 3\_S1
- 4\_P\_sh

The alignment results show high conservation across most positions, with many identical bases represented by asterisks (\*). The sequences are approximately 1000-1200 characters long.

14 rasm. Clustal Omega dasturi yordamida to'g'irlanish natijasi.

## Clustaw2\_phylogeny dasturi yordamida filogenetik daraxtni tuzish

Step 5 (Qadam 5) – Alignments oynasinig o'ng tarafida filogeniya tuzish uchun ilova saqlanadi. (Send to ClustaW2\_Phylogeny)

4. Send to ClustaW2\_Phylogeny tugmasini bosing, boshqa oynada filogeniya tuzish uchun ketma- ketlik ochiladi (15-rasm).
5. Boshqa oynada Submit tugmasini bosing, bir necha daqqa mobaynida fayllar va filogrammalar birdan filogenetik daraxt ochiladi (16-rasm).

The screenshot shows the ClustalW2 Phylogeny input form. The URL in the address bar is [www.ebi.ac.uk/Tools/services/web/toolform.ebi?tool=clustalw2\\_phylogeny&sequence=clustalo-I20160419-103529-0352-32361032-oy](http://www.ebi.ac.uk/Tools/services/web/toolform.ebi?tool=clustalw2_phylogeny&sequence=clustalo-I20160419-103529-0352-32361032-oy). The main title is "ClustalW2 - Phylogeny". The "Input form" tab is selected. Below it, a note says: "This tool provides access to phylogenetic tree generation methods from the ClustalW2 package. Please note this is NOT a multiple sequence alignment tool. To perform a multiple sequence alignment please use one of our MSA tools." The "STEP 1 - Enter your multiple sequence alignment" section contains a text area with the sequence: clustalo-I20160419-103529-0352-32361032-oy. Below this is a file upload field: "Or, upload a file: Выберите файл" (Select file). The "STEP 2 - Set your Phylogeny options" section includes dropdown menus for "TREE FORMAT" (Default), "DISTANCE CORRECTION" (off), "EXCLUDE GAPS" (off), "CLUSTERING METHOD" (Neighbour-joining), and "P.I.M." (off). The "STEP 3 - Submit your job" section has a checkbox "Be notified by email (Tick this box if you want to be notified by email when the results are available)" and a "Submit" button. At the bottom, there are links to "Contact us" and "FAQ". The status bar at the bottom shows "павт\_2009.pdf" and the system tray.

15 rasm. Clustal W – Phylogeny dasturi bilan filogenetik malumotlarni tayyorlash.

The screenshot shows the ClustalW2 Phylogeny results page. The URL in the address bar is [www.ebi.ac.uk/Tools/services/web/toolresult.ebi?jobId=clustalw2\\_phylogeny-I20160419-104139-0244-29133637-pg](http://www.ebi.ac.uk/Tools/services/web/toolresult.ebi?jobId=clustalw2_phylogeny-I20160419-104139-0244-29133637-pg). The main title is "ClustalW2 - Phylogeny". The "Input form" tab is selected. Below it, a note says: "Results for job clustalw2\_phylogeny-I20160419-104139-0244-29133637-pg". The "Phylogenetic Tree" tab is selected. It shows a phylogenetic tree in Newick format: { S\_C.o:0.21549, ( 1\_Pf:0.05412, 2\_Ph:0.05057 ) :0.0183, ( 3\_SI:0.05671, 4\_P.sh:0.07061 ) :0.02313 );. Below the tree, a "View Phylogenetic Tree File" button is visible. The "Phylogram" section shows a cladogram with four nodes labeled 1\_Pf, 2\_Ph, 3\_SI, and 4\_P.sh. The status bar at the bottom shows "павт\_2009.pdf" and the system tray.

## 16 rasm. Clustal W – Phylogeny yordamida filogeniya tuzish


### Filogenetik daraxtni tuzish MEGA dasturidan foydalanish

Filogenetik daraxtni tuzish uchun MEGA 5 dasturidan foydalanamiz. Dasturni ishlab chiqaruvchi korxona sahifasidan bepul ko'chirib olishimiz mumkin. Dastur tuzilayotgan daraxtning statistik ahamiyatini baholaydi va butstrep-tahlil imkoniyatini beradi. Maksimal tejamlash metodi yordamida minimal sondagi mutatsiyalangan daraxt tanlanadi.


1. Matnli fayl tuzamiz va unga ko'p marotabali to'g'irlangan 5ta ketma-ketlik malumotlarni ko'chiramiz (17-rasm). Faylini nomlaymiz, masalan Example1.txt.
2. **MEGA 5.2** dasturini ishga tushiramiz. Dasturning kirish parametrlari paydo bo'ladi (17 –rasm): Align → Enter → Edit Built Alignment → Geartev a new alignment OK → DNA → Align Explorer → Edit → Paste → Alignment by ClustarW → Data → Export Alignment → Mega format → faylga nom beramiz.
3. Maksimal tejash metodi bilan ishlovchi Mega 5 dasturini ishga tushiramiz.
4. Faylga Example2 nomini beramiz va Enter ni bosamiz (18 rasm).

```
>1_Pf
TCGCGACTATTGTCAAACGGTACTCGTCAGTCTAAAGACGTGATTCCGTTTAGTGTAGAATAATGTGATAGCAACATGTAATGATACTTATGTATTACGCCAATTCAATATGCTGGAATATGT
>2_Ph
CGCGTTGAATGCGAGTATTGTCGAACGGTACTCGTCAGTCTAAAGACGTGATTCCGTTTAGTGTAGAATAATGTGATAGCAACATGTAATGATACTTACGTATTACGCCAACACAATA
>3_S1
GGTTGCATATATGAACCGCACTATTGTCGAACGGTACTTGTCAGTCTAAAGACGTGATTCCGTTCAAGTGTAGCAGAAGTATGTGATAGCAACATGTAATGATACTTATGTATTACCCAA
>4_Psh
AGTTGCATATATGAATGCGACTATTGTCAAACGGTACTCGTCAGCTTAGTGACGTGATTCCGTTCAAGTGTAGCAGAAGTATGTGATAGCAACATGTAATAACTTATGTATTACGCCAAGTACAAT
>5_Co
TTGTCGCATATATACATACTATTATGATGTATTGTAAGGACGTGAATGCGGCTGTCTGTCAAACGGTACTCGTCAGCTGATTCCGTTCAAGTGTAGCAGAAGTATGTGATAGCAACATGTAATAACTTATGTATTACGCCAAGTACAAT
```

17-rasm. Ketma-ketliklarni ko'pmarotabali tekislashdagi tekst fayl (txt)



18 rasm. MEGA 5 programmasini tahlili chiqish parametrlari




19-rasm. Mega formatda ma'lumotlarni tekislash va o'zgartirish

Natijada ma'dumotlar mega format faylida saqlanadi va uni masalan Example2 deb nomlash mumkin.

5. Example2 fayli yordamida maksimal tejamlash usuli bilan daraxt qilish

uchun Mega 5 programmasini ishga tushiramiz.

6. Example2 faylini kiritamiz va Enter bosamiz. Tahlilni chiqish parametrlari paydo bo'ladi (20-rasm).



Ris. 20. Dastur tahlilini chiqish parametri.

Har bir daraxtni tugunida butstrep-madad qiymatlari yoziladi, masalan 93 javob (replik). Bu son daraxtlarda qancha tugunlar (avlod) mavjudligini xarakterlaydi. Qiymat 93ga qancha yaqin bo'lsa, shoxlanishni ishonchliligi shuncha yuqori bo'ladi.

### Nazorat savollari:

1. Filogenetik daraxt degani nima o'zi?
2. Filogenetik daraxt nima uchun kerak?
3. Qanday filogenetik daraxtlar bo'ladi?
4. Daraxt uchun ketma-ketlik qanday qilib tanlab olinadi?
5. Ob'ektlar o'rtasidagi masofani qanday tushunsa bo'ladi?
6. Daratlarni qaysi on-line programmalarda tuzish mumkin?
7. Olingan daraxtlarni qanday qilib chiroyli taqdim etish mumkin?

### Asosiy adabiyotlar

Sambrook, J. Molecular cloning: A laboratory manual. 2<sup>nd</sup> ed / J. Sambrook, E.F. Fritsch, T. Maniatis. - Cold Spring Harbor: Cold Spring Harbor Laboratory Press, 2001. - 1626 p.

### Qo'shimcha adabiyotlar

<http://www.megasoftware.net/>

<http://www.ebi.ac.uk/Tools/msa/clustalo/index.html>

## **12 mavzu: PARAZITAR KASALLIKLARNI PTsR-DIAGNOSTIKASI**

Biomaterial yig'ish. Turga xos praymerlar tayyorlash. Tirik hayvonlar parazitozlarni ekspress-tashxis qilish usuli (PTsR texnologiyasi).

## **I.2. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI**

### **Shartli qisqartmalar va belgilar**

DNK - dezoksiribonuklein kislotasi

Genbank - genetik bank

PZR - polimer zanjirli reaktsiya

UF - ultrabinafsha nuri

EDTA - etilendiamintetrauksus kislotasi

SDS - dodetsilsulfat natriy

mtDNK - mitoxondrial DNK

rDNK - risobosomal DNK (RNK)

NCBI - Biotexnologiya Ma'lumotlari Milliy Markazi (AQSh)

18S - rDNK geni kichik subbirligi

28S - rDNK geni katta subbirligi

ITS - rDNK geni ichki transkrib speyseri

SOI - tsitoxrom oksidaza geni

j.n. - juft nukleotid

TAE - Tris-atsetat buferi

Taq polimeraza - DNK termostabil polimerazasi

bufferlar - eritmardagi moddalar aralashmasi

mol - moddalar sonini ifodalovchi birlik

pH - eritmardagi vodorod ionining kontsentratsiyasi

n - namunalar soni

*in vitro* - organizmdan tashqarida tadqiqot o'tkazish

$\mu l$  – mikrolitr

**1-amaliy mashg'ulot:** Standart fenol-xloroform usuli yordamida umurtqasiz hayvonlar to'qimasi namunasidan genom DNKsini ajratish.

**Ishning maqsadi:** Klassik fenol-xloroform usuli yordamida umurtqasizlar namunasidan genom DNKsini ajratishni o'rganish.

**Kerakli asboblar va jihozlar:** Mikrotsentrifuga, indikatorli termostat, sterilizator, muzlatgich, suv vannasi, fenol-xloroform reagenti, proteinaza K, zoologik namunalar, turli o'lchamdaggi FinnPipete, SealPette pipetkalar va eppendorf probirkalari, qisqich, skalpel.

**Ishning nazariy asoslari:**

1. Standart fenol - xloroformli usuli va uni asosiy xususiyatlari;
2. Laboratoriya jihozlarini tozalash va ish holatiga keltirish;
3. Ish uchun kerakli eritma va buferlar;
4. DNK va RNK ajratishni ta'minlashda bir qator ustunlik talablar:
  - biologik materialni lizisi;
  - selektiv ekstraktsiya (sorbtсиya);
  - katta hajmda to'plash;
  - PTsR susaytiruvchi komponentlardan ajratish;
  - DNK va RNK ajratish;
  - yuqori foizda chiqishi;
  - kalibrovka mumkinligi va ijobiy nazorat;
  - kontaminatsiyaning yo'qligi;
  - kam vaqt sarflanishi;
  - avtomatizatsiyaning mumkinligi.

**Qisqacha nazariy qism:** Fenol va xloroform usuli (FX) - nuklein kislotalarni ajratishning klassik uslubidir. Bu uslub proteinaza K ishtirokida detergentlar tomonidan biologik materialarning parchalanishi hamda FX yordamida nuklein kislotalarni ajratib olishni o'z ichiga oladi (1-rasm, a). Buning afzalligi shundaki, kommertsiyali reagentlar to'plamiga qaraganda bu uslub bilan anchagina ko'p miqdorda DNK ajratib olinadi. Uslubning kamchiliklariga esa uning davomiyligi, mashaqqatliligi, agressiv organik erituvchilarining ishlatalishi va DNKn ni oqsildan ham, RNKdan ham etarli darajada tozalamasligini kiritish mumkin. Laboratoriya foydalaniladigan jihozlar toza (ayrimlari sterillangan) bo'lishi kerak. Buning uchun avvalo jihozlar suvda yuviladi va distillangan suvda chayiladi. Ish uchun kerakli ayrim instrumentlar (skalpel, qisqich, ignalar) 96% li etanolda yuvilib olinadi. Sterilizatsiya qilinishi mumkin bo'lgan jihozlar sterilizatorda (ko'rsatilgan tartibda) sterilizatsiya qilinadi. Eukariot organizmlardan nuklein kislotalarni ajratish va fraktsiyalashda klassik va kommertsiyali tayyor reagent-to'plam usullaridan foydalaniladi (Kuchboev va boshq., 2015).

Ish uchun kerakli eritma va buferlar tayyorlash bo'yicha tavsiyalar qo'llanmaning 3-ilovasida berilgan.

**Laboratoriya ishini bajarish tartibi:**

Nematoda to'qimalaridan nuklein kislotalarni FX – ektraktsiya qilish usuli quyidagi bosqichlardan iborat:

15. Nematoda tanasidan 0,05 g og'irlikdagi to'qimani bo'lakchasi olinadi.

16. Nematodalarning to'qimalari, tarkibida 40 mM tris – HCl (pH q8,0), 0,5 mM EDTA, 1<sup>x</sup>SSC bo'lgan bufer eritmasida (to'qima va buferning 100 mkg; 500 mkg nisbatida) gomogenizatsiya qilinadi.

17. 0,5% gacha SDS va proteinaza K ni oxirgi kontsentratsiyasi 1 mgG'ml bo'lguncha qo'shiladi, aralashtiriladi va 37°S haroratda 2-3 soat davomida inkubatsiya qilinadi yoki 18 soatga qoldiriladi.

18. Probirkaga 5 M natriy atsetat oxirgi kontsentratsiyasi 0,1 M bo'lgunga qadar qo'shiladi va aralashtiriladi. So'ngra 1:1 nisbatda fenol, to'yingan HCl trisi (pHq8,0) qo'shib, 10-15 daqiqa davomida aralashtiriladi.

19. Xloroformni 1:1 nisbatdagi hajmda qo'shib, yana 5-10 daqiqa mobaynida aralashtiriladi.

20. Olingan aralashmani 4°S haroratda 20 daqiqa tsentrifuga qilinadi (bir daqiqa davomida 4000 aylanma tezlikda).

21. Yuqoridagi fraktsiyani erigan DNK bilan (supernatant) pipetka yordamida tortib olinadi.

22. FXli oqsildan ajratish jarayoni (deproteinazatsiya) undan butunlay xolos bo'lgunga qadar takrorlanadi.

23. Ajratib olingan supernatantga 2:1 nisbatdagi hajmda xloroform qo'shib, 10-15 daqiqa aralashtiriladi, so'ngra 15 daqiqa tsentrifuga qilinib (bir daqiqa davomida 4000 aylanma tezlikda) yuqoridagi fazasi olinadi.

24. 1 ml li erigan DNKga 5 M natriy atsetat oxirgi kontsentratsiyasi 0,2 M bo'lguncha qo'shib, aralashtiriladi.

25. Ikki hajmdagi 96% li etanol eritmasi qo'shib, DNK cho'kmaga tushgunga qadar bir maromda aralashtiriladi.

26. -20°S haroratda bir sutka davomida sovutiladi, so'ngra 15 daqiqa davomida 15000 aylanma tezlikda tsentrifuga qilinadi (0°S gacha sovuguncha).

27. Supernatant olib tashlanadi, DNK cho'kmasi 70% li etanol eritmasida yuviladi.

28. Etanol eritmasi to'kib tashlanadi, DNK havoda etanol eritmasi uchib ketgunga qadar quritiladi va ionsizlantirilgan suvda eritiladi.

Olingan DNK preparatlarini kontsentratsiyasi spektrofotometrda aniqlanadi. Ajratilgan DNK kontsentratsiyasi 2,0 – 2,3 mkgG'mkl tashkil qiladi.



a.



b.

1-rasm. a) DNK esktraktsiyasi uchun fenol-xloroform reagenti; b) Diatom DNA Prep 200 to'plami.

## **2-amaliy mashg'ulot: Polimeraza zanjirli reaktsiya (PZR) - amplifikatsiya o'tkazish.**

**Ishning maqsadi:** Polimeraza zanjirli reaktsiyasi uchun kerakli buferlardan master-aratlashma tayyorlash va amplifikatorga kerakli dasturlarni kiritishni o'rGANISH

**Kerakli asboblar va jihozlar:** Amplifikator, PZR boks, PZR laboratoriya muzlatgichlari, PZRda qo'llaniladigan reaktivlar va buferlar, praymerlar, turli o'lchamdagи FinnPipete, SealPette pipetkalari va eppendorf probirkalari.

### **Ishning nazariy asoslari:**

1. PZR uslubini asosiy tushunchasi;
2. PZR uchun kerakli praymerlar tanlash;
3. PZR-amplifikatsiya o'tqazish;
4. PZR rejimi.

**Qisqacha nazariy qism:** Polimeraza zanjir reaktsiya (PZR) - *in vitro* amplifikatsiya metodi bo'lib, uning yordamida qisqa vaqt mobaynida muayyan sondagi DNK ketma-ketligini odatdagidan 1000 marotaba ko'proq tanlash yoki ko'paytirish mumkin (Mullis, Falooma, 1987; Sambrook, 2001). Usul mohiyati – probirkada muayyan DNK qismlarini qaytalanuvchi temperatura tsikllarida ko'p marotabali ko'chirish (amplifikatsiya)dir. Amplifikatsiyaning har bir tsiklida yuqorida sintezlangan fragmentlar yana DNK-polimeraza fermenti yordamida nushalanadi va DNK fragmentlari o'ziga xos ko'p marotaba ko'payadi.

PZR qo'llanilish sohasi: genom ketma-ketligini yuqori darajali klonlash (Scharf et al., 1986), mitoxondriya va genom DNK larini to'g'ri sekvenirlash (Wong et al., 1987), nukleotid ketma-ketligi o'zgaruvchanligini tahlillash va kasallik qo'zg'atuvchilarni aniqlash (Kwok et al., 1987).

Polimer zanjir reaktsiyasini o'tkazish uchun reaktsion aralashmada turli xil tarkiblar bo'lishi zarur (Saiki i dr., 1990):

- Ikkita praymer
- DNK-polimeraza termostabilligi (Taq-polimeraza)
- 2'-dezoksinukleozid-5'-trifosfat aralashmasi (dNTF - dATF, dGTF, dTsTF


va dTTF)

- Bufer
- $Mg^2+$  ionlari
- Tahlil qilinayotgan namuna.

Tsiklik temperatura rejimi - PZR-amplifikatsiyasida tahlil qilinayotgan DNKdagi qator hodisalar bo'lib muayyan temperatura parametrlari ta'minlanadi. Har bir amplifikatsiya tsikli 3ta bosqichdan iborat bo'ladi:

4. Denaturatsiya..
5. Yumshatish (praymerlarning qo'shilishi, gibridlanishi).
6. Elongatsiya (DNK sintezi).

Apmlifikatsiyaning temperatura tsikli ko'p marotaba qaytariladi (30 va undan ko'p). Har bir tsiklda sintezlanayotgan DNK fragmentlari ikki marotaba ko'payadi. Tsiklik jarayonlar natijasida DNK fragmentlari o'ziga xos geometrik tarzda ko'payib boradi (2-rasm).



2-rasm. PZR ning umumiyyatli sxemasi

Dastlab eritmada, faqat 1 ta, ikki zahirli DNA molekulasi (masalan, nematodani DNKsi) bo'lgan bo'lsa, 30-40 tsikldan keyin (3-5 soat ichida) eritmada kerakli darajada ko'p nusha shakllangan bo'ladi. Bu esa, ularni oddiy laboratoriya usullari yordamida o'rganish imkonini beradi.

Ish uchun kerakli eritma va buferlar tayyorlash bo'yicha tavsiyalar qo'llanmaning 3-illovasida berilgan.

#### **Amaliy ishni bajarish tartibi:**

Laboratoriya ishi ITS2 rDNA geni fragmenti amplifikatsiyasi eukariot praymerlari (Gasser et al., 1993) (jadval 1) va standart usul yordamida o'tkaziladi (Sambrook, 2001).

6. Ishni boshlashdan avval reaktsiyaning DNA-polimerazadan tashqari hamma komponentlarini eritib oling va bir necha vaqtga muzga joylashtirib turing. 0,2 ml probirkani muzga joylashtiring, 34,8 mkl bidistillirlangan suv, 5 mkl 10X Taq-bufer, 5 mkl 2,5 mM MgCl<sub>2</sub>, 1 mkl 2 mkM 2'-dezoksinukleozid-5'-

trifosfat, 1 mkldan to'g'ri va teskari praymerlar, 2 mkl DNK matritsasi, 0,2 mkl Taq-polimerazasi qo'shing, yakuniy hajm 50 mkm ni tashkil etadi (jadval 2).

7. 0,2 ml probirkadagi reaktsiya aralashmasini vorteksda aralashtiring va mikrotsentrifugada 15 sek mobaynida tomchilarni cho'kindi holatiga keltiring.

8. Termotsikler dasturini o'rnating (jadval 3).

9. Termotsikler lunkasiga probirkadagi reaktsiya aralashmasini joylashtiring va termotsikler qopqog'ini mahkam yoping.

10. PZR-amplifikatsiyasi tugallangandan so'ng namunalarni agarozaga geldagi elektroforez usuli yordamida tahlil qilish mumkin. Amplifikatsiyalangan namunani -20°С saqlash zarur.

Jadval 1

ITS2 rDNK geni fragmenti amplifikatsiyasi uchun spetsifik praymerlar

<b>Praymer nomlanishi</b>	<b>Nukleotid ketma-ketligi 5'→3'</b>
Eukariot to'g'ri praymeri ITS2 -NC1(F)	ACGTCTGGTTCAGGGTTGTT
Eukariot teskari praymeri ITS2 -NC2(R)	TTAGTTCTTTCTCCGCT

Jadval 2

PZR uchun mo'ljallangan reaktsiya aralashmasi tarkibi

<b>Reaktsiya komponentlari</b>	<b>Hajm, mkl</b>
10X Taq-bufer	5
2,5 mM MgCl <sub>2</sub>	5
0,2 mM 2'-dezoksinukleozid-5'-trifosfat	1
20 mM to'g'ri praymer *	1
20 mM teskari praymer *	1
DNK matritsasi	2
Taq-polimeraza 5 edG'mkl	0,2
Bidistillirlangan H <sub>2</sub> O	34,8
Reaktsiyaning yakuniy hajmi	50

### PZR rejimi

ITS2 rDNK geni fragmenti amplifikatsiyasi ish rejimi uchun quyidagi tartibda amalga oshiriladi (jadval 3).

Jadval 3

ITS2 rDNK geni fragmenti

<b>Temperatura</b>	<b>Vaqt</b>	<b>Tsikl</b>	<b>Bosqichlar</b>
92° С	3 min	1	Dastlabki qizdirish
92° С	15 sek	35	denaturatsiya
55° С	30 sek	35	yumshatish
72° С	30 sek	35	sintez

72° S	10 min	1	yakuniy sintez
10° S	-	-	saqlash

**3-amaliy mashg'ulot: Agaroza gelini tayyorlash va PZR mahsulotlarida elektroforez o'tkaziish.** Agaroza gelidan DNK ajratish va tozalash.

**1-qism: Agaroza gelini tayyorlash va PZR mahsulotlarida elektroforez o'tkaziish.**

**Ishning maqsadi:** Agaroza gelini tayyorlash, tayyorlangan gelga PZR mahsulotlarini kiritish va elektroforez o'tkazishni o'rganish.

**Kerakli asboblar va jihozlar:** Elektroforez tok manbai, gorizontal gelelektroforez to'plami, elektron tarozi, ultrabinafsha-translyuminator, pipetkalar, agaroza, TAE buferi, etilen bromid, himoyalangan ko'zoynaklar.

**Ishning nazariy asoslari:**

1. Agaroza gelida elektroforez usulini asosiy tushunchasi;
2. Agaroza gelini tayyorlash;
3. PZR mahsulotlarida elektroforez o'tqazish;
4. DNK miqdorini aniqlash.

**Qisqacha nazariy qism:** DNK elektroforezi - analitik usul bo'lib, ajratish, tenglashtirish va DNK qismlarini tozalash uchun foydalaniladi. DNK elektroforezi gorizontal yoki vertikal yo'nalishda amalga oshiriladi (Osterman, 1996; Sambrook, 2001).

DNK molekulasi shakarfosfat qoldig'i manfiy zaryadlangan, shuning uchun DNK zanjiridagi manfiy zaryadlangan katoddan elektor maydon kuchi ostida musbat zaryadlangan anod tomonga harakatlanadi. Uzunroq bo'lgan molekulalar sekinroq ko'chadi, chunki gelda ushlanib qoladi, qisqaroq molekulalar tezroq harakat qiladi (Sambrook, 2001).

Natijalarni vizuallash maqsadida erigan agarozaga bromli etidiy kiritiladi (Dretzen et al., 1991).

Olingan DNK qismlari o'lchamlari tahlili uchun chiziqli DNK markeridan foydalaniladi.

Elektor maydon kuchlanishi katta ahamiyatga ega, shu sababli taqsimlanish samaradorligi pasayishi kuzatiladi. DNK qismlarini ajratishda eng maksimal samaradorlikka erishish maqsadida, kuchlanish 1 santimetr gelda 5 voltdan oshmasligi zarur (Girvitz et.al., 1990).

Gelning tarkibiga quyidagilar kiradi: 1X TAE (rN 8,1), agaroza, bromli etidiy. Gelning foiz ulushiga qarab har xil tarkibiy qismlar qo'shiladi. Gelning foiz ulushi DNK qismlari tarqalish uzunligi orqali tanlanadi (4 jadval). Masalan, 18S rDNK gen tahlili uchun (uzunligi taxminan 600 j.n.) 2% li agaroza geli optimal hisoblanadi.

**Gelda agarzoa kontsentratsiyasining nisbati va tahlil qilinayotgan DNK fragmentining optimal razmeri**

<b>Geldagi agarozaning miqdori (%)</b>	<b>DNK qismlari o'lchami (ming j.n, Kb)</b>
0,3	50-60
0,6	1-20
0,7	0,8-10
0,9	0,5-7
1,2	0,4-6
1,5	0,2-3
2,0	0,1-2

Agaroza gelini tayyorlash va elektroforez o'tkazishga doir tavsiyalar qo'llanmaning 3-ilovasida berilgan.

**Amaliy ishni bajarish tartibi:**

Gelni elektroforez vannachasiga qo'yishdan avval namunalarni kiritish uchun orgoynali vannaga taroqchalarni o'rnatib, katakchalar (cho'qircha) yasab oling. Taroqchalarning pastki tishchalar umumiyligi hajmi 50 ml bo'lgan gelning asosida 2 mm oralig'ida joylashsin (umumiyligi hajmi 150 ml bo'lgan gelning asosidan 1mm oralig'ida joylashsin) (3 rasm).

14. 50 ml 2%li agarzoa gelini tayyorlash uchun 50 ml 1X TAE va 1 g agarzoa qo'shiladi. 1X TAE boshlang'ich kontsentratsiyasi 50X TAE eritmasidan tayyorlanadi. (Tris, 0,5M EDTA pH 8,0, muzlatilgan uksus kislotasi).

15. Agaroza tutqichini 1X TAE eritmasi yordamida qaynash darajasida shunday qizdiringki, eritma gomogen holatiga kelsin, ya'ni agarozaning erimagan zarralari bo'lmasin.

16. Bu jarayondan so'ng 50°С darajasida sovuting va 0,5 mkl bromli etidiy qo'shing.

17. Hamma gel hajmini elektroforez vannachasiga quying. Gel sovugandan so'ng (30-45 daqiqa xona haroratida), astalik bilan taroqchalarni olib tashlang va elektroforez vannachasiga 1X TAE buferini gel to'liq qoplangunga qadar quying.

18. Namunalarni 6X Loading Dye buferi (tarkibi: 4% li to'q sariq G, 0,03% li bromfenol, 0,03% ksilen- tsianol FF, 15% Fikolla 400, 10 mM tris-HCl pH 7,5 i 50 mM EDTA pH 8,0) bilan shunday aralashtirinki, namunadagi yakuniy kontsentratsiya 1X bo'lsin va mikropipetka yordamida geldagi chuqurchalarga (katakcha) quying.

19. Olingan DНK qismlari hajmini tahlil qilish uchun chuqurchalarning biriga 2,5 mkl DНK-markerini *DirectLoa<sup>drM</sup> Wide Range DNA Marker* qo'shing.

20. DНK ajratishni uchun kuchlanish 1 santimetrdan gelda 5 voltdan oshmasligi zarur.


21. Elektroforez yakunlangandan so'ng gelni ultrabinafsha-transillyuminator nurlarida ko'ring va rasmga oling, natijalarni qayd qiling.

*Diqqat! Qo'z to'r pardasining ultrabinafsha nurlari shikastlamasligi uchun DNK qismini tekshirishda transillyuminatorning komplekt shishalari orqali yoki maxsus himoya ochkilari yordamida amalga oshiriladi.*

22. 4-rasmida hamma namunadagi genlarning 18S rDNK qismida DNK-ampflikatsiyasini ko'rsatuvchi PZR mahsulotdagi tahlili misol tariqasida keltirilgan. Genning 18S rDNK qismi ampflikatsiyalangan nukleotidlar ketma-ketligi uzunligi taxminan 500 p.ni tashkil qiladi.



3 - rasm. Agaroza gelida gorizontal elektroforez o'tqazish uskunasi elementlari: Elektr tok manbai, gel quyish uchun lotok, gel ushlagich, taroqlar va lineyka.



4-rasm. Elektroforez yordamida 1.5% agarozada 9 ta namunadagi rDNK 18S geni fragmentining PZR mahsulotining ko'rinishi.

## **2-qism: Agaroza gelidan DNK ajratish va tozalash**

**Ishning maqsadi:** Agaroza gelidan DNK ajratish va tozalash usullarini o'rGANISH.

**Kerakli asboblar va jihozlar:** Turli o'lchamdagи pipetkalar va probirkalar, tsentrifuga, elektron tarozi, elektroforez tok manbai, elektoroforez to'plami, transillyuminator, DNK tozalash uchun "Tsitokin" firmasida ishlab chiqarilgan to'plamlar, agaroza geli, skalpel, himoya ko'zoynagi.

### **Ishning nazariy asoslari:**

1. PZR-amplifikatsiyasi mahsulotlarini tozalash to'plamlari;
2. PZR-amplifikatsiyasi mahsulotidagi DNKn ni tozalash va ajratish;
3. Tozalangan PZR mahsulotida preperatli elektroforez o'tqazish.

**Qisqacha nazariy qism:** Geldagi PZR-amplifikatsiyasi mahsulotlarida kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolardan biri o'ziga xos bo'limgan chiziqchalar bo'lishi yoki bo'yalgan yo'lakchadek ko'rindi. Bunday xolatlarda PZR fragmentini geldan ajratib olish kerak bo'ladi. **Kerakli PZR fragmentini skalpel yordamida geldan kesib olinadi, 1.5 ml li tsentrifugalangan probirkaga joylashtiriladi va tarozida o'lchab olinadi.** PZR fragmentlarini ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya qilingan turli xil usullar yordamida ajratib olish mumkin.

*Agaroza gelidan PZR mahsulotidan kerakli genning DNKnini ajratish uchun ishlatiladigan maxsus DNK tozalash to'plamlaridan foydalaniлади.*

Tozalangan PZR mahsulotlari natijasi ko'rish uchun 0.9 % li agaroza gelida elektroforez o'tkaziladi.

### **Laboratoriya ishini bajarish tartibi:**

